## 1-§. DIYORIMIZ JAHON SIVILIZATSIYASI BESHIKLARIDAN BIRI

**1. Qaysi so'z qabila begi, hukmdor degan ma'noni anglatadi?**
A) "Turkman" B) "Qozoq" C) "Mo'g'ul" D) "O'zbek"
**2. Qachon Samarqandda buyuk allomalar ilmiy me'rosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazilgan?**
A) 2014-yil 13-14-may B) 2014-yil 14-15-may
C) 2015-yil 13-14-may D) 2014-yil 15-16 may
**3. Ilk o'rta asrlarda "qishloq hokimi" deb atalgan katta yer egasi bu ... ?**
A) Chokar B) Dehqon
C) Koshavarz D) Kadivar
**4. Qachon mamlakatimizda Arab xalifaligi o'rnatildi?**
A) VIII asrning boshlari B) VII asrning boshlari
C) VIII asrning oxiri D) IX asrning boshlari
**5. Ilk o'rta asrlarda zamonasining qaysi buyuk davlatlari davrida qadimgi Turon diyorida yuksalish boshlangan?**
A) Qang' davlati va Kushon podsholigi
B) Xorazm va Eftaliylar
C) Davan va Qang' davlati
D) Baqtriya va Sug'd davlati
**6. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj nimaning natijasida ortib bordi?**
A) Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi natijasida
B) Dehqonlar, kadivarlar va kashovarzlar tabaqalarining shakllanishi natijasida
C) Dehqonchilikda almashlab ekish joriy qilinishi natijasida
D) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shni mamlakatlarga chiqarilishi natijasida
**7. Ilk o'rta asrlarda mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi qanday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keldi?**
1) Yirik o'rta asr davlatlari shakllana boshladi;
2) Ziroatkor maydonlarga egalik qilish shakli asta-sekin o'zgara boshladi
3) Sex hunarmandchiligiga va o'ziga xos shahar ijtimoiy tuzumiga ega bo'lgan o'rta asr shaharlari vujudga keldi; 4) O'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivojlandi;
5) Xalqlarning buyuk ko'chishlariga olib keldi;
6) Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholinining o'troq hayotga o'tishining kuchayishi natijasida obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik oshib bordi;
7) Ikki dalali almashlab ekish joriy qilindi;
8) Katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllandi.
A) 2,4,6,8 B) 1,3,6,8 C) 1,2,4,6,7,8 D) 1,3,5,7
**8. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qay tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllandi?**
A) Dehqonlarning yerga ishlov berishi natijasida yirik mol-mulkka ega bo'lib qolishi natijasida
B) Nufuzga ega bo'lgan mulkdorlar qo'liga yangi yer maydonlarning ma'lum bir ulushining o'tishi va merosiy mulkiga aylanishi natijasida
C) Chorvadorlarning ko'psonli chorvalarini boqqan yerlariga ega bo'lib qolishi natijasida
D) Dehqonlarning shahar va qishloqlarda hashamatli qasr va saroylarga ega bo'lib qolishi
**9. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa to'g'on boshi atrofidan ajratib olar edilar. Bu yo'l bilan ular qanday imkoniyatlarga ega bo'lardilar?**
A) Barcha sug'orish inshootlarini egasi bo'lish
B) Suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq ziroatkor mehnatkashlarining yerlariga yetarlicha suv yetkazib berish va dehqonchilikda faqat o'zlari uchun suvdan bemalol foydalanish
C) Suvdan dehqonchilikda bemalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z ta'sirini o'tkazish
D) O'z ekin maydonlarini meyyoriga yetirib sug'orish va mo'l hosil olish imkoniyatiga ega bo'lganlar
**9. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda sarkorlar qishloqlarda o'z ta'sir doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O'sha zamonda ular nima deb atalgan?**
A) Kashovarzlar B) Kadivarlar
C) Dehqonlar D) Ziroatkorlar
**10. Kimlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ham ega edilar?**
A) Kadivar. B) Kashovarz. C) Chokar. D) Dehqon.
**11. Qachon dehqonlar, kashovarzlar va kadivarlar tabaqalari shakllandi?**
A) Ona urug'i davrida. B) Ilk o'rta asrlarda.
C) Rivojlangan o'rta asrlarda D) Eng yangi asrda.
**12. "Dehqon" so'zining ma'nosi nima?**
A) "Viloyat hokimi" B) "Shahar hokimi".
C) "Tuman hokimi" D) "Qishloq hokimi".
**13. Ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa qanday atalgan?**
A) Kadivar B) Kashovarz C) Chokar D) Dehqon
**14. Ilk o'rta asrlarda qishloqning dehqonlarga qaram aholisi qanday atalgan?**
A) Kadivar B) Kashovarz C) Chokar D) Dehqon
**15. Ilk o'rta asrlarda ziroatchi oddiy qo'shchilar qanday atalgan?**
A) Kadivar B) Kashovarz C) Chokar D) Dehqon
**16. Ilk o'rta asrlarda dehqon mulkini qo'riqlovchi, harbiy posbon qanday atalgan?**
A) Kadivar B) Kashovarz C) Chokar D) Dehqon

**17 . V asrning o'rtalariga kelib....**
A) Ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi mulkdor dehqonlar qaramog'iga o'tdi.
B) Ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi mulkdor dehqonlar tomonidan kadivarlarga ijaraga berilar edi
C) Ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi mulkdor dehqonlar tomonidan kashovarzlarga ijaraga berilar edi
D) Ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi.

## 3-§. ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM, XIONIYLAR, KIDARIYLAR DAVLATLARI

**1. Qang' davlatidan birinchi bo'lib qayer ajralib chiqadi?**
A) Sug'd B) Xorazm C) Choch D) Farg'ona
**2. III asr o'rtalarda Xorazm davlatini qaysi sulolaga mansub xorazmshohlar idora qiladi?**
A) Anushteginlar B) Ma'muniylar
C) Oltintoshlar D) Afrig'iylar
**3. III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti dastlab qaysi shahar bo'lgan?**
A) Kofirqal'a B) Jonbosqal'a
C) Anqaqal'a D) Tuproqqal'a
**4. Qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasi qayerda joylashgan?**
A) Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanida.
B) Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanida.
C) Qoraqalpog'istonning Qo'ng'irot tumanida.
D) Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida.
**5. Afrig'iylar sulolasi Xorazmda qachon hukm surgan?**
A) V-IX asrlar B) IV-X asrlar
C) V-X asrlar D) III-IX asrlar
**6. Qachon xorazmshoh o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi Kat shahriga ko'chiradi?**
A) 305-yil B) 306-yil C) 307-yil D) 308-yil
**7. Qaysi xorazmshoh o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi Kat shahriga ko'chiradi?**
A) Kayxusrav B) Saksafar C) Farasman D) Afrig'
**8. Qachon Xorazmning Afrig'iy shohlari oldi tarafiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarini mustahkam o'rnatib oladilar?**
A) 305-yil B) 306-yil C) 307-yil D) 308-yil
**9. Xorazmshohlar unvoni dastlab qaysi sulolasi tomonidan qabul qilingan?**
A) Siyovushlar B) Ahamoniylar
C) Sosoniylar D) Afrig'iylar
**10. Qachon Xorazm hududida bir nechta mayda hokimliklar mavjud bo'lgan?**
A) II asrda B) III asrda C) IV asrda D) V asrda
**11. Qadimgi Xorazmdagi qaysi yodgorlikdan qo'lida burgut qo'ndirilgan tojdor hukmdor tasviri tushirilgan tanga topilgan?**
A) Kofirqal'a B) Jonbozqal'a
C) Anqaqal'a D) Tuproqqal'a
**12. Qadimgi Xorazmdagi qaysi yodgorlikdan qo'lida lochin tutgan tojdor tasviri so'qilgan tanga topilgan?**
A) Kofirqal'a B) Jonbozqal'a
C) Anqaqal'a D) Tuproqqal'a
**13. Xorazm qaysi hududlar bilan diplomatik aloqa olib borgan?**
A) Rim imperiyasi va saljuqiylar bilan
B) Vizantiya va Turklar bilan
C) Kushon podsholigi va Qang'lar bilan
D) Arablar va Yahudiylar bilan
**14. Xorazm davlatining hukmronlik ramzlari qaysilar?**
A) Burgut, lochin B) Humo, burgut
C) Qaldirg'och, laylak D) Ot, burgut
**15. Quyidagi qaysi davlatda betiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushiriligan kumush tangalar zarb qilingan?**
A) Somoniylar davlatida B) Eftaliylar davlatida
C) Turk xoqonligida D) Afrig'iylar davlatida
**16. Qaysi davrda O'rta Osiyoda Xioniylar hukmdorlik qilishgan?**
A) IV asr 70 yillaridan V asr 2-yarmi
B) V asr boshidan VI asr o'rtalarigacha
C) IV asr o'rtalaridan V asr boshigacha
D) IV asr 50-yillaridan V asr o'rtalarigacha
**17. Xioniylar davlati markazi qayerda bo'lgan?**
A) Zarafshonda B) Surxon vohasida
C) Balxda D) Toxaristonda
**18. Xioniylar davlati qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?**
1. Shimoliy Hindiston 2. Sharqiy Eron 3. Afg'oniston
4. Xuroson 5. Janubiy Tojikiston
A) 1,2,5 B) 1,2,4 C) 2,3,4 D) 1,3,4
**19. Xioniylar davlati O'rta Osiyoda necha yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi?**
A) 110 yil B) 120 yil. C)130 yil. D) 140 yil.
**20. Qachon sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga ko'chmanchi chorvador aholi - toxarlar kirib keladi?**
A) V asming 20-yillarida B) V asming 30-yillarida.
C) V asming 40-yillarida D) V asming 50-yillarida.
**21. Kimlar kushonlarning avlodlaridan bo'lgan?**
A) Toxarlar. B) Xioniylar. C) Jurjonlar. D) Eftallar.
**22. Qanday ismli hukmdor toxarlarga yo'lboshchi edi?**
A) Mihirakula B) Kidar C) Vaxshunvar
D) Grumbat
**23. Kimlar kidariylar nomi bilan tilga olinadi?**
A) Toxarlar B) Xioniylar C) Jurjonlar D) Eftallar
**24. Kidariylar Xioniylar davlatining qaysi qismida o'z hukmronligini o'rnatganlar.**
A) Janubiy B) Shimoliy C) Sharqiy D) Markaziy

**25. Kidariylar davlatining poytaxti?**
A) Marv B) KobuI C) Balx D) Hirot
**26. Qachon sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar o'zini qayta o'nglab ololmaydi?**
A) 453-yil B) 454-yil C) 455-yil D) 456-yil
**27. Kidariylar shimoldan janubga tomon siljigan qaysi ko'chmanchi chorvador aholi bilan to'qnashadilar va natijada, O'rta Osiyoni tark etib, janubga - Shimoliy Hindistonga chekinadilar?**
A) Xiyoniylar B) Xunnlar C) Turklar D) Eftallar
**28. Kidariylar Shimoliy Hindistonda necha yil hukmronlik qiladiiar?**
A) 55 yil. B) 65 yil. C) 75 yil. D) 85 yil.
**29. Xorazmda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san'at, xususan, … yuqori darajada rivoj topgan?**
A) Me'morchilik B) Haykaltaroshlik
C) Xattotlik D) Musiqa
**30. Quyidagi qabilalarga tegishli ma'lumotlarni aniqlang.**
1)…. O'rta osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan kirib kelgan.
2)…. sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm va Amudaryo havzasiga kirib kelgan.
3) … ning ilk ajdodlari shimoli g'arbiy hududda yashagan xunn qabilalari ittifoqiga kirgan.
4) Oltoy va janubiy Sibirda yashagan … yagona davlatga birlashgan.
a) turklar b) kidariylar c) eftallar d) xioniylar
A) 1-d,2-b,3-c,4-a B) 1-b,2-d,3-c,4-a
C) 1-c,2-b,3-a,4-d D) 1-a,2-c,3-d,4-b

## 4-§. EFTALLAR DAVLATI. EFTALLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

**1. Qaysi davrda O'rta Osiyoda Eftaliylar humdorlik qilgan?**
A) IV asr 70 yillaridan V asr o'rtalarigacha
B) V asr 20-yillari VI asr 70-yillari
C) IV asr o'rtalaridan V asr boshigacha
D) IV asr 50-yillaridan V asr o'rtalarigacha
**2. Eftallar davlati qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?**
1. Shimoliy Hindiston 2. Sharqiy Eron 3. Afg'oniston 4. Xuroson 5. Janubiy Tojikiston 6. Sharqiy Turkiston 7. O'rta Osiyo 8. Pokiston
A) 1,2,3,6,7,8 B) 1,2,3,4,7 C) 2,3,4,7 D) 1,2,6,7,8
**3. Qachon eftallar diyorimizga kirib kelgan?**
A) IV asrning o'rtalarida B) V asrning boshlarida
C) V asrning o'rtalarida D) V asrning oxirlarida
**4. "Eftal" degan nom aslida "Eftalon" deb yuritilgan…?**
A) Tog' nomidan olingan.
B) Daryo nomidan olingan.
C) Shoh nomidan olingan.
D) Shahar nomidan olingan.
**5. "Eftalon"ni yana nima deb ataganlar?**
A) Mihirakula. B) Kidar. C) Vaxshunvar.
D) Grumbat
**6. Eftallar davlatining dastlabki poytaxti bu …?**
1. Varaxsha 2. Vardona 3. Marv 4. Poykant
A) 1,2 B) 2,3 C) 1,4 D) 2,4
**7. Eftallar o'zaro aloqa o'rnatish maqsadida qachon Xitoyga elchi yuboradilar?**
A) 453-yil. B) 454-yil. C) 455-yil. D) 456-yil.
**8. Nima sababdan sosoniylar Eftaliylar davlatiga qarshi yurish qiladi?**
A) Sosoniylarning tobora kuchayib borayotgan eftaliylar hujumidan xavfsirashlari sababli
B) Eftaliylarning sosoniylar bilan tuzgan savdo shartnomasini buzganliklafi sababli
C) Eftaliylar shohining sosoniylar shohi Pero'zga nisbatan haqoratli maktub yo'llashi sababli
D) Eftaliylarning sosoniylar davlati tasarrufidagi hududni bosib olishlari sababli
**9. Sosoniylar shohi Pero'z qachon eftallarga qarshi bo'lgan jangda mag'lub bo'ladi?**
A) 481-yil. B) 482-yil. C) 483-yil. D) 484-yil.
**10. Eftallar davlatiga uyushgan mulklar hukmdor - kimga tobe sulolalar tomonidan boshqarilgan.**
A) Sho (shoh)ga B) Vasilevsga C) Qoonga D) Hadivga
**11. Qachon Zog'ariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari barpo etilgan?**
A) V asr. B) VI asr. C) VII asr. D) IV asr.
**12. Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan kanallar?**
A) Zarafshon va Vaxsh. B) Darg'om va Parak.
C) Zog'ariq va Bo'zsuv. D) Norin va Murg'ob.
**13. Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbayi?**
A) Zog'ariq. B) Bo'zsuv. C) Darg'om. D) Murg'ob.
**14. Ipak yo'li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan kimlar vositachilik rolini o'ynardi?**
A) Sug'diylar. B) Uyg'urlar.
C) Manjurlar. D) Xorazmiylar.
**15. Eftallar qaysi davlatlar bilan bo'lgan xalqaro savdoda faol qatnashgan?**
A) Xitoy, G'arbiy Rim imperiyasi, Eron va Misr bilan
B) Misr, Hindiston, Eron va Yunoniston bilan
C) Xitoy, Hindiston, Arabiston va Misr bilan
D) Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan
**16. Eftallar davrida xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan…?**
A) Sosoniylarning kumush tangalaridan foydalaniladi.
B) Mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi.
C) Mahalliy hokimlar tomonidan tangalar chiqariladi.
D) Davlatda savdogarlarning nufuzi mustahkamlanadi.
**17. Ichki va tashqi savdo munosabatlarida eftallar dastavval kimlarning kumush tangalaridan keng**

**foydalanadilar?**
A) Turkiya sultonlarining. B) Sosoniy hukmdorlarining
C) Bulg'or xoqonlarining. D)Vizantiya imperatorlarining
**18. Qaysi shaharlarda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakatning ichki savdosida keng muomalada bo'lgan?**
1. Buxoro 2. Poykand 3. Vardona 4. Naxshab
5. Samarqand 6. Xorazm
A) 1,2,3,4 B) 1,2,3,4,5 C) 1,2,3,4,5,6 D) 1,3,4,5
**19. Ilk o'rta asrlarda o'troq aholining bir qismi sug'd tilida, ikkinchi qismi qaysi tilda so'zlashgan?**
A) Turkiy. B) Xorazm. C) Forsiy. D) Arab.
**20. Ilk o'rta asrlarda qaysi til xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi?**
A)Turkiy. B) Sug'd. C) Forsiy. D) Arab.
**21. V-VI asrlarda qaysi yozuv tarqalgan edi?**
A) Sug'd B) Xorazm C) Eftal D) A,B,C.
**22. Eftallar xati qaysi yozuv asosida paydo bo'ladi?**
A) Finikiya. B) Midiya. C) Baqtriya. D) Parfiya.
**23. Eftallar yozuvi necha harfdan iborat bo'lgan?**
A) 25. B) 26. C) 27. D) 28.
**24. Markaziy Osiyodagi eftallar qaysi dinlarga e'tiqod qilishgan?**
1. Mitra. 2. Budda. 3. Moniy. 4.Mazda 5. Shomon.
6. Zardusht. 7.Siyovush 8.Anahita 9. Nasroniy.
A) 1,2,3,4,5,6 B) 1,2,3,4,5,6,7
C) 1,2,3,4,5,6,7,8 D) 1,2,3,4,5,6,7,8,9
**25. Qachon O'rta Osiyoda shishasozlik rivojlangan?**
A) V asr. B) VI asr. C) VII asr. D) VIII asr.
**26. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan qaysi davlat shishasidan ustun turgan?**
A) Xitoy. B) Vizantiya. C) Eron. D) Hindiston.
**27. Qaysi davlat hukmdorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar?**
A) Xitoy. B) Vizantiya. C) Eron. D) Hindiston.
**28. O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, qaysi mamlakatlar tasviriy uslublari bilan omixtalashib, ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylanadi?**
1. Xitoy. 2. Vizantiya. 3. Eron. 4. Hindiston.
A) 1-2. B) 3-4. C) 1-3. D) 2-4.
**29. Eftaliylar yozuviga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.**
1) Xorazm yozuvining vujudga kelishiga asos bo'lgan
2) Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'lgan
3) o'ngdan chapga tomon ko'ndalangiga yozilgan
4) 25 harfdan iborat
5) Sug'd yozuvi asosida vujudga kelgan
6) chapdan o'ngga tomon ko'ndalangiga yozilgan
7) 26 harfdan iborat
8) Oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan
A) 1,3,5,7 B) 2,4,6 C) 5,6 D) 2,3,7,8

## 5-§. O'RTA OSIYO XALQLARI TURK XOQONLIGI DAVRIDA

**1. Qachon Turk xoqonligi tashkil topgan?**
A) 549-yil B) 550-yil C) 551-yil D) 552-yil
**2. Turk xoqonligining asoschisi kim edi?**
A) Usmon. B) Istami. C) Bumin. D) Abruy.
**3. VI asr o'rtalarida qayerda Turk xoqonligi vujudga keldi?**
A) Yettisuv va Sharqiy Ural.
B) Xitoy va G'arbiy Kavkaz.
C) Bolqon va Shimoliy Eron.
D) Oltoy va Janubiy Sibir.
**4. Qachon Bumin "xoqon" deb e'lon qilindi?**
A) 549-yil B) 550-yil C) 551-yil D) 552-yil
**5. Qayer Turk xoqonligining markazi qilib belgilanadi?**
A) Yettisuv B) Kavkaz C) Xuroson D) Oltoy
**6. Turklarning g'arbga tomon yurishlariga kim boshchilik qiladi?**
A) Usmon B) Istami C) Bumin D) Abruy
**7. Kimga "Yabg'u xoqon" degan unvon beriladi?**
A) Usmon B) Istami C) Bumin D) Abruy
**8. Qachon turklar Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallaydilar?**
A) 553-yil B) 554-yil C) 555-yil D) 556-yil
**9. Sirdaryo va Orol bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallagan Turk xoqonligi chegaralari qaysi davlat hududlariga borib yondoshadi?**
A) Xitoy davlati B) Sosoniylar davlati
C) Eftaliylar davlati D) Vizantiya imperiyasi
**10. Sosoniylar qayerlarni eftallardan tortib oladilar?**
1. Toxariston. 2. Chag'oniyon.
3. Badaxshon. 4. Qo'bodiyon.
A) 1-2. B) 3-4. C) 1-3. D) 2-4.
**11. Turk xoqonligining eftallar bilan to'qnashishi muqarrar edi. Bunday murakkab siyosiy vaziyat xoqonlikni avval qaysi mamlakat bilan yaqinlashtiradi?**
A) Xitoy B) Vizantiya C) Eron D) Hindiston
**12. Turk xoqonligining eftallar bilan to'qnashishi muqarrar edi. Bunday murakkab siyosiy vaziyat xoqonlikni so'ngra qaysi mamlakat bilan yaqinlashtiradi?**
A) Xitoy B) Vizantiya C) Eron D) Hindiston.
**13. Nima sababdan turklarning eftaliylar bilan to'qnashishi arafasida Eron davlati va Turk xoqonligi yaqinlasha bordi?**
A) Sosoniylar eftaliylardan o'zlarining Marv va Badaxshon hududlarini qaytarib olishi kerak edi
B) Turklar va sosoniylar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra sosoniylar eftaliylar tasarrufidagi Toxariston va Chag'oniyonni olishi kerak edi
C) Eftaliylar tazyiqida yashagan sosoniylar bu

davlatning tamomila barbod boʻlishidan manfaatdor edi
D) Sosoniylar shohi turklarning yabgʻu xoqoni Istamiga kuyov bo’lgan edi
**14. Qaysi Eron shohi Istamiga kuyov bo’lgan?**
A) Kubod. B) Xusrav I. C) Pero’z. D) Shopur II.
**15. Turklar qachon Eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar?**
A) 561-yil. B) 562-yil. C) 563-yil. D) 564-yil.
**16. Qaysi davlat askarlarining Balxga hujumi ko’magida turklar Eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar?**
A) Xitoy B) Vizantiya C) Eron D) Hindiston
**17. Parak (Chirchiq) vodiysining markazi qayer bo’lgan?**
A) Sug’d B) Xorazm C) Choch D) Farg’ona
**18. Turk xoqonligi tomonidan O'rta Osiyo shaharlarining egallanish ketma-ketligini to'g'ri belgilang.**
A) Naxshab, Samarqand, Kesh va Choch, Buxoro
B) Buxoro, Samarqand, Kesh va Naxshab, Choch
C) Choch, Samarqand, Kesh va Naxshab, Buxoro
D) Choch, Samarqand, Buxoro, Kesh va Naxshab
**19. Buxoroda turklar va eftallar o’rtasidagi shiddatli jang necha kun davom etgan?**
A) 5 kun. B) 6 kun. C) 7 kun. D) 8 kun.
**20. Turk xoqonligi qachon Eftallar davlatini bosib olgan?**
A) 561-565-yillarda B) 562-566-yillarda.
C) 563-567-yillarda D) 564-568-yillarda.
**21. 563-yilda Eftallar davlati hududiga bostirib kirgan turklar Zarafshon vodiysidagi qaysi hududlarni egallab, Buxoroga yaqinlashadilar?**
A) Samarqand, Kesh va Naxshabni
B) Xo'jand, Talos va Naxshabni
C) Samarqand, Chog'aniyon va Xuttalonni
D) Ustrushona, Samarqand va O'zganni
**22. Eftallar davlatining merosi o’zaro bo’linib, Amudaryoning janubiy qirg’oqlarigacha bo’lgan viloyatlar qaysi davlat tasarrufiga o’tadi?**
A) Xitoy B) Vizantiya C) Eron D) Hindiston.
**23. Eftallar davlatining merosi o’zaro bo’linib, Amudaryoning o’ng sohillari bo’ylab Kaspiy dengizigacha cho’zilgan yerlar qaysi davlat tasarrufiga o’tadi?**
A) Turk xoqonligi B) Kidariylar davlati
C) Xazar xoqonligi D) Xioniylar davlati.
**24. Eftallar davlati qulagach, qaysi davlat Amudaryodan to Suriyaga qadarli Ipak yo’li ustida haqiqiy sarbon bo’lib oladi?**
A) Xitoy B) Vizantiya C) Eron D) Hindiston.
**25. Eftallar davlati qulagach, qaysi davlat Uzoq Sharqdan Eron hududlarigacha karvon yo’li nazoratini o’z homiyligi ostiga olgan?**
A) Turk xoqonligi B) Kidariylar davlati.
C) Xazar xoqonligi D) Xioniylar davlati.
**26. Ilk oʻrta asrlardagi qudratli Eftaliylar davlati nechanchi yillarda va qaysi davlatlarning zarbalari natijasida barbod bo’ldi?**
A) 563-567-yillarda janubdan Eron sosoniylari va shimoldan Turk xoqonligi zarbalari natijasida
B) 569-583-yillarda janubdan Vizantiya va shimoldan Turk xoqonligi zarbalari natijasida
C) 563-564-yillarda shimolda Turk xoqonligining zarbasi natijasida
D) 567-583-yillarda janubda Eron sosoniylari va shimolda Turk xoqonligi zarbalari natijasida
**27. Turk xoqonligi qanchalik katta bo’lmasin, chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi nimadan iborat bo’lgan?**
A) Turkiy tilda so’zlashuvchi qabilalar ittifoqidan.
B) Xoqon hokimiyad urug’-aymoq udumlaridan.
C) Bo’ysundirilgan mahalliy tarqoq davlatlardan.
D) Harbiy-ma’muriy boshqaruvidagi organlardan.
**28. Turk xoqonligi hukmdorining hokimiyati...**
A) Qishloqlarda eng nufuzli dehqonlar qoʻlida edi
B) Xalq hokimiyatiga asoslangan edi
C) Barcha huquqlarga ega bo'lgan yakka hokimlikka asoslangan edi
D) Urugʻ-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma’muriy boshqaruvga asoslangan edi
**29. Turk xoqonligida ko'chmanchi chorvador aholi qanday nom bilan yuritilgan?**
A) “Ixshid” yoki “qizil ixshid”.
B) “Budun” yoki “qora budun”
C) “Majus” yoki “sariq majus”.
D) “Akkor” yoki “ko’k akkor”.
**30. O’n o’q budun yoki elning hokimi qanday nom bilan atalardi?**
A) “Muqto” yoki “iqtodor”.
B) “Tavg’ach” yoki “bug’ro”.
C) “Yabg’u” yoki “jabg’u”.
D) “Barzikor” yoki “qo’shchi”.
**31. Turk xoqonligida yabg’u darajasiga faqat kimlar ko’tarilardi?**
A) Janglarda o’zini ko’rsatgan jasur harbiylargina.
B) Xoqon urug’iga qon-qarindosh bo’lganlargina.
C) Viloyatda nufuzi katta bo’lgan oqsoqollargina.
D) Davlat oldida maxsus xizmat ko’rsatganlargina.
**32. Turk xoqonligida o’n ming qo’shin qo’mondoni nima deb yuritilgan?**
A) “Shod”. B) “Ariz”. C) “Cho’r”. D) “Amid”.
**33. Turklar mahalliy aholidan qanday soliq undirib olish bilan cheklanadilar?**
1. Ushr. 2. Shulen. 3. Boj. 4. Yasoq.
A) 1-2 B) 3-4 C) 1-3 D) 2-4-6
**34. VI asrda qaysi hududlarda oʻndan ortiq voha hokimliklari mavjud edi?**
1. Chirchiq 2. Zarafshon 3. Qashqadaryo
4. Amudaryo 5. Murg’ob
A) 1,2 B) 1,2,3 C) 1,2,3,4 D) 1,2,3,4,5
**35. Turk xoqonligida dehqonlar va chorvadorlardan**

**olinadigan soliq qanday atalgan?**
A) Ushr B) Shulen C) Boj D) Yasoq
**36. Qanday omillar Turk xoqonligining markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermadi?**
A) Katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqining markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka intilishi, hududlardagi hokimliklarning mustaqil bo‘lishga intilishi;
B) Janubdan doimiy sosoniylar tazyiqi
C) Eftaliylar avlodlarining hokimiyatni o‘z qo‘liga olishga intilishi;
D) O‘zaro olib borilgan urushlar natijasida
**37. Qachon Turk xoqonligi Sharqiy turk xoqonligi va G’arbiy turk xoqonligiga bo’linib ketadi?**
A) VI asming 60-yillari oxirlarida.
B) VI asming 70-yiIlari oxirlarida.
C) VI asming 80-yillari oxirlarida.
D) VI asming 90-yillari oxirlarida.
**38. Turk xoqonligi qanday sabablarga ko’ra bo’linib ketgan?**
1. Katta-katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqi markaziy hokimiyatga bo’ysunmaslikka intilganlar.
2. Turk xoqonligi tasarrufida bo’lgan hududlardagi hokimlar mustaqil bo'lishni istar edilar.
3. Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat xoqonlik ahvolini yanada og’irlashtirgan.
4. O'zaro ichki kurashlar natijasida mamlakat qishloq xo’jaligi tanazzulga uchrab qolgan.
5. Og’ir ijtimoiy zulmga qarshi ko’tarilgan xalq qo’zg’olonlari markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi.
6. Eftallar davlati barham topgandan so’ng Buyuk ipak yo’li o’z ahamiyatim yo’qotib bordi.
A) 1-2-3 B) 4-5-6 C) 1-3-5 D) 2-4-6
**39. Turk xoqonligi ikkiga bo’linib ketgach Buyuk turk xoqonligi barpo etilgan el-yurt ........ sharqidan to Uzoq Sharqgacha bo’lgan hudud Sharqiy turk xoqonligi tasarrufida bo’lgan?**
A) Oltoy tog’lari B) Pomir tog'lari
C) Oloy tog'lari D) Gobi sahrosi
**40. Quyidagi qaysi hududlar G‘arbiy turk xoqonligi tarkibiga kirgan?**
A) Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo va Amudaryo havzalari
B) Sharqiy Xitoy, Oltoy va Yettisuvning shimoliy qismi
C) Shimoliy Xitoy, Janubiy Sibir va Urxun havzasi
D) Shimoliy Xitoy, Mo‘g‘uliston va G‘arbiy Sibir
**41. Quyidagi qaysi hududlar Sharqiy Turк xoqonligi tarkibiga kirgan?**
A) Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo va Amudaryo havzalari
B) Sharqiy Xitoy, Oltoy va Yettisuvning shimoliy qismi
C) Shimoliy Xitoy, Janubiy Sibir va Urxun havzasi
D) Shimoliy Xitoy, Mo'g'iliston va G‘arbiy Sibir
**42. Sharqiy turk xoqonligining poytaxti?**
A) Bolasog’un B) Suyob C) Yangikent
D) O’tukan
**43. G’arbiy turk xoqonligining markazi qayerda joylashgan?**
A) Yettisuv B) Kavkaz C) Xuroson D) Oltoy
**44. O’tukan vodiysi qayerda joylashgan?**
A) Mesopotamiya B) Mo’g’uliston
C) Movarounnahr D) Mavritaniya

## 6-§. G‘ARBIY TURK XOQONLIGI

**1. Sharqiy turk xoqonligi aholisining asosiy qismi nima bilan shug’ullangan?**
A) Dehqonchilik B) Hunarmandchilik.
C) Chorvachilik D) Savdo-sotiq.
**2. Ga’rbiy turk xoqonligi aholisining asosiy qismi nima bilan mashg'ul edi?**
A) Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq
B) Dehqonchilik C) Chorvachilik D) Savdo-sotiq
**3. Qachon G’arbiy turk xoqonligi nihoyatda kuchayadi?**
A) VII asming birinchi choragida.
B) VII asming ikkinchi choragida.
C) VII asming birinchi yarmi
D) VII asming ikkinchi yarmi
**4. G’arbiy turk xoqonligi nihoyatda kuchaygan davrida uning sharqiy chegarasi qayerga borib taqaladi?**
A) Yettisuv B) Kavkaz C) Xuroson D) Oltoy
**5. G’arbiy turk xoqonligi nihoyatda kuchaygan davrida uning janubiy chegarasi qayerga borib taqaladi?**
A) Yoyiq (Ural) daryosi bo’ylari.
B) Itil (Volga) daryosi bo’ylari.
C) Sind (Hind) daryosi bo’ylari.
D) Tigr (Dajla) daryosi bo’ylari.
**6. To’ng yabg’u nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?**
A) 617-629-yillarda B) 618-630-yillarda.
C) 619-631-yillarda D) 620-632-yiIlarda.
**7. Kim hukmronlik qilgan davrda G’arbiy turk xoqonligida boshqaruv tartiblari isloh qilinadi?**
A) Bilga xoqon B) To’ng yabg’u.
C) Qoracho’rin D) Sheri Kishvar
**8. O’rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytiriladi. Ular huzuriga xoqonlikning noiblari - ... yuboriladi?**
A) Ixshid B) Yabg’u C) Tudun D) Dehqon
**9. G’arbiy turk xoqonligida mahalliy hokimlarga xoqon tomonidan qanday unvon berilgan?**
A) Ixshid B) Yabg’u C) Tudun D) Dehqon
**10. G‘arbiy turk xoqonligida nima maqsadda mahalliy hukmdorlarga “yabg‘u” unvoni berilgan?**
A) Mamlakatdagi urug’ va qabilalami xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash
B) Viloyat hokimlarini rag‘batlantirish va hukmdor

faoliyatini qo‘llab-quvvatlash
C) Mamlakatdagi tarqoq urug‘ va qabilalarni birlashtirish
D) Viloyat hokimlarining xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish

**11. G‘arbiy turk xoqonligining zaiflashishiga sabab nima edi?**
A) O‘zaro ichki kurash B) Eron davlatining tazyiqi
C) Ko‘chmanchi yuechji qabilalarining hujumi
D) Sharqiy turk xoqonligining tazyiqi

**12. Turk xoqonligi davrida ichki va tashqi savdo-sotiqda kimlarning mavqeyi baland edi?**
A) Farg'ona savdogarlarining B) Sug‘d savdogarlarining
C) Yettisuv savdogarlarining
D) Badaxshon savdogarlarining

**13.Yasoq bu ....**
A) Xoqonlik xonadonidan bo’lgan yurt hokimi
B) Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan soliq
C) Maxsus undiriladigan soliq turi
D) Tobe hukmdor o‘z xojasiga to‘laydigan to‘lov

**14. VII asming birinchi yarmida G’arbiy turk xoqonligi bilan qaysi mamlakat o’rtasida ayniqsa iqtisodiy aloqalar faollashdi?**
A) Xitoy B) Vizantiya C) Eron D) Hindiston.

**15. VII asming birinchi yarmida G’arbiy turk xoqonligidan Xitoyga necha marotaba savdo elchiligi yuboriladi?**
A) 9 B) 10 C) 11 D) 12

**16. Abruy boshchiligida xalq qo’zg’oloni qayerda bo’lgan?**
A) Xorazm B) Samarqand C) Buxoro
D) Toshkent

**17. Abruy boshchiligida xalq qo’zg’oloni qachon bo’lgan?**
A) 583-584-yillarda B) 584-585-yillarda
C) 585-586-yillarda D) 586-587-yillarda

**18. Abruy boshchiligidagi qo’zg’olondan vahimaga tushgan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib, qaysi shaharlar atrofiga borib o’mashadilar?**
1.Turfan 2. Toshkent 3.Turkiston 4. Taroz
A) 1-2 B) 3-4 C) 1-3 D) 2-4

**19. Abruy boshchiligidagi qo’zg’olonchilarga qarshi kurashda qaysi turk xoqonidan yordam berishni so’raganlar?**
A) Bilga xoqon. B) To’ng yabg’u.
C) Qoracho’rin. D) Sheri Kishvar.

**20. Abruy boshchiligidagi qo’zg’olonchilarga qarshi turk xoqoni kim boshliq qo’shin yuboradi?**
A) Bilga xoqon. B) To’ng yabg’u.
C) Qoracho’rin. D) Sheri Kishvar.

**21. El Arslon kim?**
A) Bilga xoqon. B) To’ng yabg’u.
C) Qoracho’rin. D) Sheri Kishvar.

**22. Abruy boshchiligida xalq qo’zg’oloni nima uchun sodir bo’lgan?**
A) Turk xoqoni zulmiga qarshi
B) Mahalliy hukmdorlarning bedodligi, soliqlarning ko’pligiga qarshi
C) Qashshoqlik, jabr-zulm, dehqonlar asoratiga qarshi
D) Aholi qo’lidagi yer-suvning tortib olinishiga qarshi

**23. Abruy kim bo’lgan?**
A) Mahalliy mulkdor B) Xoqon xonadoniga mansub
C) Cho’pon D) Xoqon sarkardalaridan biri

## 7-§. MAHALLIY HOKIMLIKLARNING TASHKIL TOPISHI

**1. V-VII asrlarda O’rta Osiyoda qanchadan ortiq mustaqil hokimliklar tashkil topadi?**
A) 13 B) 14 C) 15 D) 16

**2. Ilk o‘rta asrlarda mahalliy hokimliklar markaziy hokimiyatga boj to‘lab turish bilan ...**
A) O‘z mustaqilligini ma’lum darajada saqlab qoladilar
B) Hokimliklar orasida o‘z mavqeni oshirib olardilar
C) Hokimning o‘zgartirilmasligini birmuncha saqlab qolardilar
D) Birmuncha vaqtga bo‘lsa-da mustaqil ish yuritardilar

**3. O’rta Osiyoda mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi qaysi edi?**
A) Sug’d B) Xorazm C) Choch D) Farg’ona

**4. O’rta asr davlatlari birlashmasi ittifoqida ..... katta siyosiy nufuzga ega bo’lgan.**
A) Choch tudunlari B) Toxariston yabg’ulari
B) Sug’d ixshidlari D) Eloq dehqonlari

**5. Sug’d ittifoqida Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Buxoro, Kesh vohalarining nechta yirik mulklari birlashgan edi?**
A) 9. B) 10. C) 11. D) 12.

**6. Sug’diylar dehqonchilik va bog’dorchilik, ayniqsa nimada nihoyatda omilkor edilar?**
A) Kulolchilik. B) Yilqichilik.
C) Qurolsozlik. D) Uzumchilik.

**7. Qayerning hisori qo’ylari va tulporlari juda mashhur edi?**
A) Sug’d. B) Xorazm. C) Choch. D) Farg’ona.

**8. Qachon hadya tariqasida Samarqanddan yuborilgan dubulg’adan nusxa olib, o’sha davlat qurolsozlari qo’shinni temir qalpoq (dubulg’a) lar bilan ta’min etganlar?**
A) 680-yilda B) 718-yilda C) 736-yilda
D) 627-yilda

**9. Hadya tariqasida Samarqanddan yuborilgan dubulg’adan nusxa olib, qaysi davlat qurolsozlari qo’shinni temir qalpoq (dubulg’a) lar bilan ta’min etganlar?**

A) Xitoy. B) Vizantiya. C) Eron. D) Hindiston.
**10. Toxariston necha tog' va tog'oldi viloyatlaridan iborat edi?**
A) 25. B) 26. C) 27. D) 28.
**11. Qaysi shahar Toxariston poytaxti bo'lgan?**
A) Marv. B) Kobul. C) Balx. D) Hirot.
**12. Toxariston qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?**
1. Janubiy O'zbekiston 2. Sharqiy Eron 3. Shimoliy Afg'oniston 4. Janubiy Tojikiston 5. O'rta Osiyo
A) 1,2,3 B) 1,3,4 C) 1,4,5 D) 2,4,5
**13. Toxariston hukmdorlari dastlab ... keyinchalik ... nom bilan atalgan**
A) Malikshoh, yabg'u B) Ixshid, Malikshoh
C) Tudun, yabg'u D) Yabg'u, malikshoh
**14. Toxariston necha harfli yozuvga ega bo'lgan?**
A) 25. B) 26. C) 27. D) 28.
**15. Toxariston aholisining asosiy qismi nima bilan shug'ullangan?**
A) Dehqonchilik. B) Hunarmandchilik.
C) Chorvachilik. D) Savdo-sotiq.
**16. Toxaristonda hunarmandchilikning qaysi sohalari taraqqiy etgan?**
1. Kulolchilik. 2. To'qimachilik 3. Qurolsozlik.
4. Shishasozlik 5. Zargarlik 6. Teri-ko'nchilik
A) 1,3,6 B) 2,3,4 C) 1,5,6 D) 1,3,4
**17. Toxariston shimolda qaysi tog'lar bilan chegaralangan?**
A) Pomir. B) Zarafshon. C) Hisor. D) Hindikush.
**18. Toxariston janubda qaysi tog'lar bilan chegaralangan?**
A) Pomir. B) Zarafshon. C) Hisor. D) Hindikush.
**19. Toxariston sharqda qaysi tog'lar bilan chegaralangan?**
A) Pomir. B) Zarafshon. C) Hisor. D) Hindikush.
**20. Toxariston g'arbda qaysi vodiylar bilan chegaralangan?**
A) Farg'ona va Naxshab. B) Yorkand va Talos.
C) Murg'ob va Xerirud. D) Kashmir va Panjob.
**21. Qaysi tarixiy viloyatning nomi mil. avv. II asrda Yunon - Baqtriya davlatini qulatgan chorvador qabila yuechjilarlar nomidan olingan?**
A) Toxariston. B) Chag'oniyon.
C) Badaxshon. D) Qo'bodiyon.
**22. Toxariston qaysi mamlakatlar bilan savdo-madaniy aloqalar o'rnatgan?**
1. Hindiston 2. Xitoy
3. Yaqin va Uzoq Sharq 4. Kichik Osiyo
A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3 D) 3,4
**23. Koson, Axsikat (Xushkat) va Quva (Qubo) kabi yirik markaziy shaharlar qayerda bo'lgan?**
A) Sug'd. B) Xorazm. C) Choch. D) Farg'ona.
**24. Ilk o'rta asrlarda qayerdan qo'shni mamlakatlarga bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan?**
A) Sug'd. B) Xorazm. C) Choch. D) Farg'ona.
**25. Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'irlarida qadimdan aholi nima bilan shug'ullanilgan?**
A) Kulolchilik. B) Yilqichilik.
C) Qurolsozlik. D) Uzumchilik.
**26. Ilk o'rta asrlarda qaysi shahar Choch poytaxti bo'lgan?**
A) Binkat. B) Choch. C) Tunkat. D) Shosh.
**27. Ilk o'rta asrlarda qaysi shahar Eloq poytaxti bo'lgan?**
A) Binkat. B) Choch. C) Tunkat. D) Shosh.
**28. Ilk o'rta asrlarda Eloq hokimlari nima deb atalardi?**
A) Ixshid. B) Yabg'u. C) Tudun. D) Dehqon.
**29. Ilk o'rta asrlarda Choch hokimlari nima deb atalardi?**
A) Ixshid. B) Yabg'u. C) Tudun. D) Dehqon.
**30. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona hokimlari nima deb atalardi?**
A) Ixshid. B) Yabg'u. C) Tudun. D) Dehqon.
**31. V-VII asrlarda qaysi vodiylarda ikkita hokimlik: Choch va Eloq mavjud bo'lgan?**
A) Chirchiq va Ohangaron B) Farg'ona va O'sh
C) Zarafshon va Chirchiq D) Sirdaryo va Norin
**32. VII asming dastlabki choragida G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlik qarorgohini qayerga ko'chiradi?**
A) Sug'd. B) Xorazm. C) Choch. D) Farg'ona.
**33. Qayerda hukmdor va malika uchun Yabg'ukat va Xotunkat kabi o'ziga xos qarorgohlar bino qilindi?**
A) Sug'd. B) Xorazm. C) Choch. D) Farg'ona.
**34. Qayerni tangalarining old betida hukmdor surati, teskari tomonida ot, gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan?**
A) Sug'd. B) Xorazm. C) Choch. D) Farg'ona.
**35. Qaysi omil qadimgi turkiylar davlatchiligida hukmdorning malikasi - xvatun (xotun) vazirlik darajasiga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etganligidan dalolat beradi.**
A) Malikaning alohida shaharda o'z saroyiga ega bo'lishi
B) Malika nomidan old tomoniga surati tushirilgan tangalarning zarb qilinishi
C) Ayrim harbiy yurishlarga malikaning boshchilik qilishi
D) Ayrim tangalarda hukmdorga yonma-yon malika tasviri ham tushirilishi
**36. Qaysi omil Choch va Eloqqa ichki va tashqi savdo - sotiqning kengayib, shaharlarining gavjumlashuviga imkon beradi?**
A) Karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi
B) Turk xoqonlarining ularning ichki ishlariga aralashmasligi
C) Mahalliy hokimlar o'rtasida tuzilgan ittifoqchilik
D) Mahalliy hokimlarning yuritgan oqilona siyosati
**37. Quyidagi qaysi hudud hukmdorlari "ixshid" deb atalgan?**

A) Choch va Eloq B) Sug‘d va Farg‘ona
C) Sug‘d va Toxariston D) Toxariston va Choh

**38. Farg‘onaning qaysi tog‘lari yonbag‘rlarida qadimdan jahonga mashhur bo'lgan tulpor otlarni yetkazib beruvchi yilqichilik bilan shug‘ullanilgan?**
A) Bo‘ysun va Shohimardon B) Qurama va Shohimardon
C) Qoramozor va Bo‘ysun D) Qurama va Qoramozor

**39. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hokimliklarida boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lgan?**
A) Fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan
B) Fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish va ularni vaqtida xoqon saroyiga yetkazish
C) Mahalliy hokimlikda tinchlikni saqlash va yig'ilgan soliqni xoqon saroyiga yetkazish
D) Xoqonga belgilangan soliq va qoshinni to'plab berish

**40. Ilk o'rta asrlarda istehkomli qasr, qo'rg'on va ko'shklar asosan qanday vazifani o'tagan?**
1. Tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti.
2. Chokarlar to'planadigan joy.
3. Ma'muriy markaz.
4. Oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor.
5. Diniy marosimlar o'tadigan joy.
6. Asirlar saqlanadigan manzil.
7. Dehqonlar yashaydigan uy.
8. Elchilarni qabul qiladigan saroy.
A) 1-2-3-4. B) 5-6-7-8. C) 1-3-5-7. D) 2-4-6-8.

**41. O'rta asrlarda shaharlar necha qismdan iborat bo'lgan?**
A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.

**42. O'rta asrlarda shaharning hokim qasri joylashgan qismi qanday atalgan?**
A) Rabod. B) Shahriston. C) Kuhandiz. D) Qo'rg'on.

**43. O'rta asrlarda shaharning tashqi mavzesi qanday atalgan?**
A) Rabod. B) Shahriston. C) Kuhandiz. D) Qo'rg'on.

**44. O'rta asrlarda shaharning ichki qismi qanday atalgan?**
A) Rabod. B) Shahriston. C) Kuhandiz. D) Qo'rg'on.

**45. O'rta asrlarda yashagan arab mualliflarining qayd etishicha, birgina Binkat shahrining qancha darvozasi bo'lgan?**
A) 19. B) 20. C) 21. D) 22.

**46. Binkat qaysi shaharning o'rta asrlardagi nomi?**
A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**47. O'rta asrlarda yashagan qaysi arab mualliflari Binkat shahrining qancha darvozasi bo'lganligini qayd etgan?**
A) Ibn Battuta va Ibn Dast B) Ibn Xavqal va Ishtaxriy
C) Ibn Fadlan va Al Masudiy D) Ibn Battuta va Ishtaxriy

## 8-§. VI–VII ASRLARDA MADANIY HAYOT

**1. Sug'd va Xorazm yozuvlari qaysi yozuv asosida maydonga kelgan edi?**
A) Oromiy B) Shumer C) Turkiy D) Yunon.

**2. Toxar yozuvi qaysi yozuv asosida shakllangan edi?**
A) Finikiya. B) Midiya. C) Baqtriya. D) Parfiya.

**3. V-VII asrlarda O‘rta Osiyo hududida xat, hujjat va ayrim axborotlar kabi maktubotlar asosan nimaga bitilardi?**
A) Charm, sopol, qog'ozga B) Qog'ozga
C) Mum surkalgan taxtachalarga
D) Charm, yog'och, sopolga

**3. Quyidagi qaysi yodgorliklardan sug‘d yozuvlari namunalari topilgan?**
1) Qal'ai Mug‘ 2) Ajinatepa 3) Bolaliktepa
4) Varaxsha 5) Turfan 6) Qiziltepa
7) Kaltaminor 8) Afrosiyob
A) 1,5,7 B) 1,5,8 C) 2,4,6,8 D) 1,3,5,7

**4. Sug'dda o'g'il bolalar necha yoshga to'igach, yozuv va hisobga o'rgatilar edi?**
A) 5 yosh. B) 6 yosh. C) 7 yosh. D) 8 yosh.

**5. Sug'dda o'g'il bolalar necha yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi?**
A) 17 yosh. B) 18 yosh. C) 19 yosh. D) 20 yosh.

**6. Turkiy run (ko'kturk) yozuvi qancha harflardan iborat edi?**
A) 37-39 harflardan. B) 38-40 harflardan.
C) 39-41 harflardan. D) 40-42 harflardan.

**7. Turkiy run (ko'kturk) yozuvi nimalarga o'yib yozishga nihoyatda qulay edi?**
A) Sopol va metall. B) Qog'oz va teri.
C) Tosh va yog'och. D) Suyak va teriga

**8. Qadimgi ko'k turk bitiklari (Kultegin va Bilga xoqon bitiklari) qayerlardan tashqari, Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topilib, o'rganilgan?**
A) Sibir va Janubiy Hindiston.
B) Kavkaz va Shimoliy Xitoy.
C) Bolqon va G'arbiy Turkiya.
D) Oltoy va Sharqiy Turkiston.

**9. VI-VII asrlarda O'rta Osiyo aholisining ko'pchiligi qaysi dinga e'tiqod qilgan?**
A) Nasroniylik. B) Zardushtiylik.
C) Buddaviylik. D) Shomoniylik.

**10. Qayer Markaziy Osiyoda budda va moniylik dinlarini tarqalishi va rivojida muhim rol o'ynagan?**
A) Toxariston. B) Chag'oniyon.
C) Badaxshon. D) Qo'bodiyon.

**11. Toxariston aholisi qaysi dinga e'tiqod qilgan?**
A) Islom. B) Xristian. C) Budda. D) Zardusht.

**12. Qayer Sug'ddagina emas, balki butun O'rta Osiyoda nasroniylik markazlaridan hisoblanardi?**
A) Xorazm viloyatining Urganch tumani.
B) Farg'ona viloyatining Rishton tumani.
C) Samarqand viloyatining Urgut tumani.
D) Toshkent viloyatining Chinoz tumani.
**13. Qaysi diniy ta'limot bo'yicha olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi - yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir?**
A) Moniy. B) Shomon. C) Budda. D) Zardusht.
**14. Nimalar moniy dinining arkoni hisoblangan?**
1. Namoz. 2. Kalima. 3. Haj.
4. Ibodat. 5. Ro'za. 6. Sadaqa.
A) 1-2-3. B) 4-5-6. C) 1-3-5. D) 2-4-6.
**15. Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan qaysi dinga sig'inib kelgan?**
A) Nasroniylik. B) Zardushtiylik.
C) Buddaviylik. D) Shomoniylik.
**16. Qaysi din jon va ruhlarga, ota-bobolar ruhiga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan?**
A) Nasroniylik. B) Zardushtiylik.
C) Buddaviylik. D) Shomoniylik.
**17. Qadimgi turklar o'z dinini nima deb yuritganlar?**
A) "Toq". B) "Ayl". C) "Lak". D) "Qam".
**18. Qaysi din Ko'k Tangriga sig'inuvchi yakka xudolik dini?**
A) Nasroniylik. B) Zardushtiylik.
C) Buddaviylik. D) Shomoniylik.
**19. Ko'k Tangri sharafiga nima qurbonlik uchun so'yilgan?**
A) Oppoq junli qo'y. B) Bir yashar tuya.
C) Ikki shohli ho'kiz. D) Qora qashqa ot.
**20. Bolaliktepa yodgorligi qayerda joylashgan?**
A) Buxoro vohasi. B) Surxon vohasi.
C) Xorazm vohasi. D) Navoiy vohasi.
**21. Ilk o'rta asrlarga oid quyidagi yodgorliklardan qaysi birlari Zarafshon vodiysida joylashgan?**
A) Panjikent, Afrosiyob, Varaxsha
B) Bolaliktepa, Afrosiyob, Varaxsha
C) Ajinatepa, Afrosiyob, Varaxsha
D) Panjikent, Afrosiyob, Bolaliktepa
**22. O'rta asrlarda shahriston maydoni qancha maydonni egallagan?**
A) 15 ga B) 20 ga C) 25 ga D) 30 ga
**23. Qaysi sharlarning maydoni 20 ga dan oshmagan?**
1. Buxoro 2. Samarqand 3. Varaxsha 4. Poykand
A) 1,2 B) 2,3 C) 1,4 D) 2,4
**24. Qaysi shahar maydon 200 ga bo'lgan?**
A) Samarqand B) Choch
C) Farg'ona D) Buxoro
**25. Haykaltaroshlik rivojida ayniqsa qaysi din kuchli ta'sir ko'rsatgan?**
A) Islom. B) Xristian. C) Budda. D) Zardusht.
**26. Qayerlardan buddaning bahaybat haykallari topilib, o'rganildi?**
1. Sharqiy Turkistondagi Turfandan.
2. Surxon vohasidagi Bolaliktepadan.
3. Farg'ona vodiysidagi Quvadan.
4. Qo'rg'ontepayaqinidagi Ajinatepadan.
A) 1-2. B) 3-4. C) 1-3. D) 2-4,
**27. Ajinatepa buddasi haykalining bo'yi necha metrga boradi?**
A) 9 metr. B) 10 metr. C) 11 metr. D) 12 metr.
**28. Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari qaysi manzilgoh topilmalari orqali tadqiq etildi?**
A) Afrosiyob. B) Ayritom. C) Varaxsha. D) Xolchayon.
**29. Qaysi yodgorlikdan arfa (chiltor) chalayotgan qiz topilgan tasviri?**
A) Afrosiyob. B) Ayritom. C) Varaxsha.
D) Xolchayon.
**30. Ilk o'rta asrlarda san'at sohasida qayer qiziqchilari bilan shuhrat topgan edi?**
A) Xorazm. B) Samarqand. C) Buxoro.
D) Toshkent.
**31. Ilk o'rta asrlarda san'at sohasida qayer naychilari bilan shuhrat topgan edi?**
A) Xorazm. B) Samarqand. C) Buxoro. D) Toshkent.
**32. Ilk o'rta asrlarda san'at sohasida qayer raqqos yigit va raqqosa qizlan bilan shuhrat topgan edi?**
A) Xorazm. B) Samarqand. C) Buxoro. D) Toshkent.
**33. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur "Choch raqsi" yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi "Doira raqsi" qaysi davlat a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi?**
A) Xitoy. B) Vizantiya. C) Eron. D) Hindiston.
**34. Ilk o'rta asrlarda birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan necha turdagi cholg'u asboblari yasalgan?**
A) 9. B) 10. C) 11. D) 12.
**35. Bizning zamonamizgacha saqlanib qolgan Sug'd yozuvlari ilk o'rta asrlarga oid qaysi yodgorliklarda qayd etilib o'rganilgan?**
A) Bolaliktepa, Afrosiyob va Bolasog'un shahari xarobalarida
B) Mug' qal'asi, Turfan shahri yaqini va Afrosiyobda
C) Varaxsha, Afrosiyob va Yerqo'rg'on shahar xarobalarida
D) Mug' qal'asi, Panjikent va Afrosiyob shahar xarobalarida
**36. Ilk O'rta asrlarda O'rta Osiyoda tashkil topgan hokimliklarga oid malumotlarni aniqlang.**
1) … mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi edi.
2) … da ayniqsa qurolsozlik rivojlangan.
3) … qo'shni mamlakatlargabo'yoq, rangli shisha buyumlari va dori-darmonlar chiqargan.
4) … tangalarining old tarafiga hukmdor surati, ayrim tangalarida esa hukmdorga yonma yon malika surati tushirilgan
a) Choch b) Sug'd C) Farg'ona d) Toxariston
A) 1-b,2-a,3-d,4-c; B) 1-b,2-d,3-c,4-a;
C) 1-a,2-c,3-d,4-b; D) 1-d,2-b,3-a,4-c;

**37. V asrning 20-yillarida kidariylarning o'lkamizga kirib kelish yo'nalishi qaysi javobda to'g'ri berilgan?**
A) Yettisuv va Qoshg'ar orqali Zarafshon daryosi havzasiga
B) Kaspiy dengizi va Volga bo'yi orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga
C) Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga
D) Badaxshon va Toxariston orqali janubiy Sug'd vohasiga
**38....davrida aholining tabaqalanishi, ya'ni mulkiy tengsizlik kuchayib borgan. Shu boisdan davlat boshqaruvida qonun qoidalar tarkib topgan. Davlat harbiy kuchga tayangan, jinoyat uchun juda qattiq jazolangan.**
A) Eftaliylar B) Turk xoqonligi
C) Xorazmshohlar D) Kidariylar

## 9-§. MOVAROUNNAHRDA ARAB XALIFALIGINING O'RNATILISHI

**1. Qachon Arabistonda yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlanadi?**
A) V asr boshlarida. B) VI asr boshlarida.
C) VII asr boshlarida. D) VIII asr boshlarida.
**2. Qaysi so'z "bo'ysunish", "itoat etish", "o'zini Alloh irodasiga topshirish" degan ma'noni anglatadi?**
A) Islom. B) Xristian. C) Budda. D) Zardusht.
**3. Islom dinining asoschisi kim?**
A) Iso payg'ambar. B) Muhammad payg'ambar.
C) Nuh payg'ambar. D) Ibrohim payg'ambar.
**4. Muhammad payg'ambar nechanchi yillarda yashagan?**
A) 569-631-yillarda. B) 570-632-yillarda.
C) 571-633-yillarda. D) 572-634-yillarda.
**5. Muhammad (s.a.v.) qaysi shaharda dunyoga kelgan?**
A) Madina. B) Damashq. C) Makka. D) Bag'dod.
**6. Muhammad (s.a.v.) qachon arablarni yagona davlatga birlashtiradi?**
A) 629-yil. B) 630-yil. C) 631-yiI. D)632-yil.
**7. Muhammad (s.a.v.) vafot etgach, kim xalifa deb e'lon qilinadi?**
A) Abu Bakr. B) Umar. C) Usmon. D) Ali.
**8. 632-634-yillarda kim Arab xalifasi bo'lgan?**
A) Abu Bakr. B) Umar. C) Usmon. D) Ali.
**9. Xalifa so'zining ma'nosi nima?**
A) "Sarkarda". B) "Hukmdor".
C) "Oqsoqol". D) "O'rinbosar".
**10. Islom diniga e'tiqod etuvchilaming muqaddas kitobi nima?**
A) Avesto. B) Injil. C) Qur'on. D) Bibliya.
**11. Qachon arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar?**
A) 649-yil. B) 650-yil. C) 651-yil. D) 652-yil.
**12. Hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlarni arablar qanday ataganlar?**
A) Yettisuv. B) Kavkaz. C) Xuroson. D) Oltoy.
**13. Xurosonning markazi qaysi shahar edi?**
A) Marv. B) Kobul. C) Balx. D) Hirot.
**14. Arablarning Xurosondagi noibi qaysi shaharda turar edi?**
A) Marv. B) Kobul. C) Balx. D) Hirot.
**15. Qaysi so'z arabcha "daryoning narigi tomoni" degan ma'noni anglatadi?**
A) Mesopotamiya. B) Mo'g'uliston.
C) Movarounnahr. D) Mavritaniya.
**16. Arablar Movarounnahrga dastlab qanday maqsadda yurish qiladi?**
A) Xalifalik hududlarini kengaytirish, o'lka boyliklarini qo'lga kiritish.
B) Xuroson xavfsizligini ta'minlash, Movarounnahrda islomni yoyish.
C) Islom dinini yoyish jihatdan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlami sinash.
D) Buyuk Ipak yo'lini nazoratga olish, savdo aloqalarini rivojlantirish.
**17. Arablar tomonidan Movarounnahrga ilk bor hujumlar qachon va qayerlardan boshlanadi?**
A) 611-yilda Ustrushona va 622-yilda Qo'bodiyondan.
B) 635-yilda Bolasog'un va 646-yilda Badaxshondan.
C) 654-yilda Maymurg' va 667-yilda Chag'oniyondan.
D) 673-yilda Samarqand va 688-yilda Toxaristondan.
**18. Manbalarda qayd etilishicha, VII asr o'rtalarida qaysi hudud arablar tomonidan ikki marotaba talon-taroj etilgan?**
A) Sug'd B) Chog'aniyon C) Xorazm D) Xuroson
**19. Arablar tomonidan qachon Maymurg'ga hujum boshlanadi?**
A) 653-yil. B) 654-yil. C) 655-yil. D) 656-yiI.
**20. Arablar tomonidan qachon Chag'oniyonga hujum boshlanadi?**
A) 665-yil. B) 666-yil. C) 667-yil. D) 668-yil.
**21. 673-yilning kuzida xalifa farmoni bilan kim Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro muzofotiga bostirib kiradi?**
A) Umar ibn Abdulaziz. B) Umayya ibn Abdulloh.
C) Qutayba ibn Muslim. D) Ubaydulloh ibn Ziyod.
**22. Qachon xalifa farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro hududiga bostirib kiradi?**
A) 673-yil. B) 674-yil. C) 675-yil. D) 676-yil
**23. 661-680-yillarda kim Arab xalifasi bo'lgan?**
A) Marvon II. B) Mansur. C) Muoviya I. D) Mu'tazid.
**24. 673-yilning kuzida Ubaydulloh ibn Ziyod qayerlarni egallab, Buxoro hukmdori qo'shinlarini yengadi?**
A) Karmana va Zandana. B) Varaxsha va Iskijkat.
C) Poykand va Romiton. D) Afshona va Vardona.

**25. Lak nima?**
A) ming. B) o'n ming. C) yuz ming. D) million.
**26. Arablar Buxorodan ko'p o'ljalar bilan Marvga qaytishda yo'l-yo'lakay qaysi shaharni egallaydilar?**
A) Termiz. B) O'tror. C) Xo'jand. D) Nasaf.
**27. Qachon arablar Movarounnahr hududini to'liq bosib olishga kirishadilar?**
A) V asr boshlarida. B) VI asr boshlarida.
C) VII asr boshlarida. D) VIII asr boshlarida.
**28. Qutayba harbiy yurishni qachon Balx viloyati atroflarini zabt etishdan boshlaydi?**
A) 705-yil. B) 706-yil. C) 707-yil. D) 708-yiI.
**29. Qutaybaga qayerning hokimi jangsiz taslim bo'ladi?**
A) Toxariston. B) Chag'oniyon.
C) Badaxshon. D) Qo'bodiyon.
B) Yangi joylarni o'zlashtirib, sug'orish tarmoqlarini barpo etish uchun.
C) Qoraxoniylarga yuboriladigan soliqlarni vaqtida jo'natmagani uchun.
D) Amirning muntazam turk sarbozlari qo'shiniga maosh to'lash uchun.
**36. 943-954-yillarda Somoniylar davlatida kim hukmdor bo'lgan?**
A) Nuh. B) Nasr. C) Nuh II. D) Nasr II.
**37. Nuh II nechanchi yillarda Somoniylar davlatida hukmdor bo'lgan?**
A) 973-994-yillarda. B) 974-995-yillarda.
C) 975-996-yillarda. D) 976-997-yillarda.
**38. Qachon Nuh ibn Nasrning amakisi isyon ko'taradi?**
A) 945-yil. B) 946-yil. C) 947-yil. D) 948-yil.
**39. Nuh ibn Nasrning qaysi amakisi isyon ko'taradi?**
A) Ibrohim. B) Ilyos. C) Ismoil. D) Iskandar.
**40. Kimning yordamida Ibrohim Buxoro taxtini egallab oladi?**
A) Abu Ali Chag'oniy. B) Qusam ibn Abbos.
C) Abul Abbos Saffoh. D) Horun ar-Rashid.
**41. Qachon Abu Ali Chag'oniyni Nuh avval Chag'oniyonga, so'ngra Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo'ladi?**
A) 949-yil. B) 950-yil. C) 951-yil. D) 952-yil.
**42. Qachon Buxoro harbiy askarlarining g'alayoni ko'tariladi?**
A) 961-yil. B) 962-yil. C) 963-yil. D) 964-yil.

## 16-§. G'aznaviylar

**1. 962-963-yillarda G'azna viloyatini kim noib va lashkar amiri sifatida boshqargan?**
A) Anushtegin. B) Xumortegin.
C) Sobuqtegin. D) Alptegin.
**2. G'azna va Kobul viloyatlarini kim mustaqil idora etishga intilib, G'aznaviylar davlatiga asos solgan?**
A) Anushtegin. B) Xumortegin.
C) Sobuqtegin. D) Alptegin.
**3. G'aznaviylar davlatining poytaxti?**
A) Mashhad. B) G'azna. C) Nishopur. D) Qandahor.
**4. G'aznaviylarning siyosiy nufuzi kimning davrida ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etilgan?**
A) Anushtegin. B) Xumortegin.
C) Sobuqtegin. D) Alptegin.
**5. 977-997-yillarda G'aznaviylar davlatida kim hukmdor bo'lgan?**
A) Anushtegin. B) Xumortegin.
C) Sobuqtegin. D) Alptegin.
**6. 997-1030-yillarda G'aznaviylar davlatida kim hukmdor bo'lgan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**7. 1030-1041-yillarda G'aznaviylar davlatida kim hukmdor bo'lgan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G' aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**8. Kimning hukmronligi davrida G'aznaviylar davlatining hududi kengayib, Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**9. Somoniylar sulolasi barham topgach, kim somoniylarning Xurosondagi hududini so'ng Xorazm davlatini (1017) ham o'z saltanatiga qo'shib olgan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**10. G'aznaviylardan kimning hukmronligi davrida mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqarilib, tanazzulga yuz tutgan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**11. Qachon G'aznaviylar davlati butunlay tugatilgan?**
A) 1185-yil. B) 1186-yil. C) 1187-yil. D) 1188-yil.
**12. Qaysi davlat bosh vazir tizimida harbiy, elchilik va rasmiy tadbirlar, moliya va xabar-pochta devonlar faoliyat ko'rsatgan?**
A) Tohiriylar davlati. B) G'aznaviylar davlati.
C) Safforiylar davlati. D) Somoniylar davlati.
**13. G'aznaviylar davlatida viloyat hukmdori nima deb yuritilgan?**
A) Amid. B) Kutvol. C) Rais. D) Voliy.
**14. G'aznaviylar davlatida shahar hokimi nima deb yuritilgan?**
A) Amid. B) Kutvol. C) Rais. D) Voliy.
**15. G'aznaviylar davlatida viloyatda boshqaruv ishlari kim tomonidan amalga oshirilgan?**
A) Amid. B) Kutvol. C) Rais. D) Voliy.
**16. G'aznaviylar davlatida shaharlarda boshqaruv ishlari kim tomonidan amalga oshirilgan?**
A) Amid. B) Kutvol. C) Rais. D) Voliy.
**17. G'aznaviylardan kim turkiy ona tili bilan bir qatorda fors, arab va pahlaviy tilarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**18. G'aznaviylar davlatining poytaxti saroyida qanchadan ortiq olim, shoir va san'atkorlar ijod qilgan?**
A) 100. B) 200. C) 300. D) 400.
**19. Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xusrov, Gardiyziy va Bayhaqiy kabi buyuk mutafakkirlar qayerda yashaganlar?**
A) Mashhad. B) G'azna. C) Nishopur. D) Qandahor.
**20. Kim "Qonuni Mas'udiy" asarini sulton Mas'udga bag'ishlagan?**
A) Bayhaqiy. B) Gardiyziy. C) Beruniy. D) Narshaxiy.

**21. Kim "Tarixi Mas'udiy" asarini sulton Mas'udga bag'ishlagan?**
A) Bayhaqiy. B) Gardiyziy. C) Beruniy. D) Narshaxiy.
**22. Abul Qosim Firdavsiy mashhur "Shohnoma" dostonini kimga taqdim etgan?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**23. G'aznaviylar davlatining qaysi shaharlarida ko'plab madrasalar, masjid, xonaqoh va saroylar bino qilinib, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan?**
1.G'azna. 2. Balx. 3.Nishopur. 4. Lohur.
5. Isfahon. 6. Marv. 7. Qandahor. 8. Hirot.
A) 1-2-3-4. B) 5-6-7-8. C) 1-3-5-7. D) 2-4-6-8.
**24. Qaysi davlat qo'shinida harbiy kemalar (daryo va dengiz foti) ham mavjud bo'lgan?**
A) Tohiriylar davlati. B) G'aznaviylar davlati.
C) Safforiylar davlati. D) Somoniylar davlati.

## 17-§. Qoraxoniylar

**1. Qachon qarluqlar yag'mo, chigil, o'g'uz qabilalari bilan yagona ittifoqqa birlashadilar?**
A) VIII asr o'rtalarida B) IX asr o'rtalarida
C) XI asr o'rtalarida D) X asr o'rtalarida
**2. Qarluq, yag'mo, o'g'uz, chigil qabilalarining qo'li ostidagi hududlar dastlab qanday atalgan?**
A) Sultoniya B) Shohoniya
C) Xoqoniya D) Qarluqiya
**3. XI-XII asrlarda «Xoqoniya» davlati rivoj topib kuchaygach, qanday nom olgan?**
A) «Qoraxoniylar» davlati
B) «Buyuk-Qoraxoniylar» davlati
C) «Qoraxoniylar xoqonligi» davlati
D) «Qarluq-Qoraxoniylar» davlati
**4. Qaysi so'z turkiy xalqlarda buyuklik va ulug'lik ramzi bo'lgan ?**
A) Qora B) Xoja C) Yabg'u D) Bug'ro
**5. Qoraxoniylar davlati qaysi hududlarda tashkil topgan?**
1.Sharqiy Turkiston 2.Shimoliy Hindiston
3.Yettisuv 4.Tyanshanning janubiy yonbag'rida
5.Movarounnahr 6.Sharqiy Eron
A) 1,3,4 B) 1,4,6 C) 2,4,5 D) 2,3,6
**6. Qoraxoniylar davlati asoschisi kim?**
A) Horun Bug'rohon B) Abdulkarim Sotuk Bug'roxon
C) Ibrohim Bo'ritegin D) Abdulla Sotuk
**7. 992-yilda kim boshliq qoraxoniylar Movarounnahrga tomon hujum boshlaydilar?**
A) Ibrohim Bo'ritegin. B) Nasr Eloqxon.
C) Horun Bug'roxon. D) Anush Tegin.
**8. 992-yilda qoraxoniylar qayerni qarshiliksiz ishg'ol qiladilar?**
A) Xorazm. B) Samarqand. C) Buxoro. D) Toshkent.
**9. Kim qoraxoniylarga qarshi kurashish uchun G'aznadagi noibi Sobuqteginni yordamga chaqiradi?**
A) Ahmad ibn Ismoil. B) Nuh ibn Mansur.
C) Ismoil ibn Ahmad. D) Mansur ibn Nuh.
**10. Sobuqtegin qancha qo'shin bilan Movarounnahrga yetib keladi?**
A) 10 ming. B) 20 ming. C) 30 ming. D) 40 ming.
**11. Nuh ibn Mansur Sobuqteginni qayerning noibi etib tayinlaydi?**
A) Yettisuv. B) Kavkaz. C) Xuroson. D) Oltoy.
**12. Nima uchun Nuh Sabuqteginni Xurosonning noibi etib tayinlaydi?**
A) Sabuktegin somoniylar sulolasining yorqin vakili bo'lgani uchun
B) Sabuktegin qoraxoniylar noibi qo'shinlarini tor-mor qilishda yordam bergani uchun
C) Sabuktegin G'aznaviylar hukmdori bo'lgani uchun
D) Sabuktegin Buxoroni egallagani uchun
**13. Qachon qoraxoniylar Movarounnahr tomon yana hujum boshlaydilar?**
A) 993-yil. B) 994-yil. C) 995-yil D) 996-yil.
**14. Qoraxoniylar Movarounnahrga tomon yana hujum boshlaganda ...**
A) Nuh ibn Mansur qo'shini Buxoroni egallaydi
B) Mahmud G'aznaviy qo'shini Buxoroni egallaydi
C) Ibrohim Bo'ritegin qo'shini Buxoroni egallaydi
D) Sabuqtegin qo'shini Buxoroni egallaydi
**15. Sabuqtegin bilan qoraxoniylar o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq somoniylarga qayer beriladi?**
A) Sirdaryo havzasi
B) Movarounnahrning markaziy qismi
C) Amudaryodan janubdagi yerlar
D) Amudaryo bo'yi viloyatlari - Xuttalon, Vaxsh, Chag'oniyon
**16. X asr oxirida Somoniylar hukmronlik qilgan hudud o'rnida qaysi davlatlar tashkil topdi?**
A) Xorazmshohlar va Qoraxitoylar davlati.
B) O'g'uzlar va Qarluqlar davlati.
C) Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlati.
D) Safforiylar va Somoniylar davlati.
**17. 999-yilda Buxoroning kim boshchiligida qoraxoniylar tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topdi?**
A) Ibrohim Bo'ritegin. B) Nasr Eloqxon.
C) Horun Bug'roxon. D) Anush Tegin.
**18. 1006- va 1008-yillarda kimlar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar?**
A) Saljuqiylar. B) Qoraxoniylar.
C) Ma'muniylar. D) Abbosiylar.
**19. Kim qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi?**
A) Mas'ud G'aznaviy. B) Ma'mun G'aznaviy.
C) Mahmud G'aznaviy. D) Mansur G'aznaviy.
**20. XI asr boshlarida g'aznaviylarga kimlar xavf sola boshlaydi?**
A) Qoraxoniylar B) Saljuqiylar C) Tohiriylar D) O'g'uzlar
**21. Qoraxoniylarning qaysi mahalliy hukmdori Amudaryo bo'yi viloyatlari - Xuttalon, Vaxsh va**

**Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi?**
A) Ibrohim Bo'ritegin. B) Nasr Eloqxon.
C) Horun Bug'roxon. D) Anush Tegin.
**22. Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori qachon Amudaryo bo'yi viloyatlari - Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi?**
A) 1037-yil B) 1038-yil. C) 1039-yiI. D) 1040-yil.
**23. Kimning davrida qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi?**
A) Ibrohim Bo'ritegin. B) Nasr Eloqxon.
C) Horun Bug'roxon. D) Anush Tegin.
**24. Sharqiy Qoraxoniylar davlatining poytaxti?**
A) Bolasog'un. B) Suyob. C) Yangikent. D)O'tukan.
**25. Movarounnahrdagi Qoraxoniylar davlatining poytaxti?**
A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.
**26. Ibrohim Bo'ritegin qanday unvon olgan?**
A) "Arslonxon". B) "Bug'roxon".
C) "Tavg'achxon". D) A, B, C.
**27. Qoraxoniylar davlatida viloyatlarni kimlar boshqarardilar?**
A) Dodxoh va muhassil. B) Eloqxon va takin.
C) Yasovul va tavochi. D) Dorug'achi va rais.
**28. Movarounnahr eloqxoni qayerda taxtga o'tirgan?**
A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.
**29. Qoraxoniylar davrida viloyat boshqaruv ma'muriyatida kimlar xizmat qilar edi?**
A) Muhtasiblar, raislar, qutvollar
B) Mushriflar, amidlar, mustovfiylar
C) Vazirlar, sohibbaridlar, mustovfiylar
D) Eloqxonlar, teginlar, tudunlar
**30. Qoraxoniylar davlatida shaharlar, somoniylar davridagidek, kimlar tomonidan boshqarilgan?**
A) Shahar hokimi, voliylar tomonidan
B) Shahar hokimi, kutvollar tomonidan
C) Shahar hokimi, teginlar tomonidan
D) Shahar hokimi, raislar tomonidan
**31. Qaysi davlatda imomlar, sayyidlar, shayxlar va sadrlarga e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tanladi?**
A) O'g'uzlar davlati. B) Qoraxoniylar davlati.
C) Qarluqlar davlati. D) Qoraxitoylar davlati.
**32. XII asming 30-yillari oxiriga kelganda qoraxoniylar davlati kimlarning hujumiga duchor bo'ldi?**
A) Mo' g'ullar. B) Jung'orlar.
C) Qipchoqlar. D) Qoraxitoylar.
**33. Qoraxitoylar davlatining hukmdori qanday atalgan?**
A) "Bog'dixon". B) "Go'rxon".
C) "Qoraxon". D) "Sherxon".
**34. Qoraxitoylar davlatining poytaxti?**
A) Bolasog'un. B) Suyob. C) Yangikent. D) O'tukan.
**35. Qoraxitoylar kimlarga mansub qabila?**
A) Arab. B) Slavyan. C) Turk. D) Mo'g'ul.
**36. Qoraxitoylarning jangovar qo'shinlari avval qayerga bostirib kiradi?**
A) Shosh va Farg'ona. B) Zarafshon va Qashqadaryo.
C) Xorazm va Buxoro. D) Toxariston va Chag'oniyon.
**37. Qoraxitoylarning jangovar qo'shinlari so'ngra qayerga bostirib kiradi?**
A) Shosh va Farg'ona. B) Zarafshon va Qashqadaryo.
C) Xorazm va Buxoro. D) Toxariston va Chag'oniyon.
**38. Qachon qoraxitoylar Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni Mahmudga qaqshatqich zarba beradilar?**
A) 1137-yil. B) 1138-yil. C)1139-yil. D)1140-yil.
**39. Qachon Qoraxoniylar davlati tugatiladi?**
A) 1141-yil. B) 1142-yil. C) 1143-yil. D)1144-yil.
**40. Kimlarning qoraxoniylar ustidan g'alaba qozonishi oqibatida Qoraxoniylar davlati tugatiladi?**
A) Mo'g'ullar. B) Jung'orlar.
C) Qipchoqlar. D) Qoraxitoylar.
**41. XI asrda Movarounnahrga kirib kelgan ko'chmanchi chorvadorlar...**
A) Dehqonlar tabaqasi bilan yaqin ittifoqda bo'lib, janub tomon harakat qiladilar.
B) Dehqonchilik maydonlarini toptab, oyoqosti qiladilar.
C) O'lka xalqlarining dehqonchilik madaniyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.
D) O'lkada otashparastlik va moniylik dinlarining keng tarqalishiga sababchi bo'ladilar.
**42. Qaysi davrda mahalliy mulkdor dehqonlar yer-suv mulklaridan hamda mamlakatda tutgan siyosiy mavqelaridan ajralib, jamiyat hayotida o'zining ilgarigi o'rni va ahamiyatini butunlay yo'qotadilar?**
A) G'aznaviylar davrida B) Somoniylar davrida
C) Qoraxitoylar davrida D) Qoraxoniylar davrida
**43. Qachon "dehqon" degan tushuncha o'zining "qishloq hokimi" ni anglatuvchi asl ma'nosini yo'qotdi?**
A) IX-X asrlarda. B) X-XI asrlarda.
C) XI-XII asrlarda. D) XII-XIII asrlarda.
**44. Kimlarning hukmronligi davrida "dehqon" degan tushuncha o'zining "qishloq hokimi" ni anglatuvchi asl ma'nosini yo'qotdi?**
A) O'g'uzlar davlati. B) Qoraxoniylar davlati.
C) Qarluqlar davlati. D) Qoraxitoylar davlati.
**45. Qachondan boshlab yerdan foydalanishda iqto tartiboti juda keng yoyiladi?**
A) IX asr. B) Xasr. C) XI asr. D) XII asr.
**46. Nechanchi asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda iqto yerlari kengayib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylanadi?**
A) IX-X asrlarda. B) X-XI asrlarda.
C) XI-XII asrlarda. D) XII-XIII asrlarda.
**47. Qoraxoniylar uchun bo'ysundirilgan mamlakatlar aholisidan tegishli soliqlarni undirib, uni boshqarishning eng qulay shaklini aniqlang?**
A) Iqto tartibi B) El-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qilish C) Shahar hokimi, rais va muhtasiblar

tomonidan boshqarish
D) Qoraxoniylar mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlab olishda musulmon ruhoniylari bilan yaqin va do'stona munosabatlar o'rnatadilar

**48. Qoraxoniylar davrida ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markazlari qaysi shaharlar hisoblangan?**
A) Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent
B) Marv, Samarqand, Buxoro, Shosh
C) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh, Axsikat
D) Samarqand, Buxoro, Kesh, Axsikat, Taroz

## 18-§. Xorazm davlati va uning yuksalishi

**1. Qachon Gurganch miri Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'ldi?**
A) 993-yil. B) 994-yil. C) 995-yil. D) 996-yil.

**2. Qaysi Gurganch miri Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'ldi?**
A) Mansur ibn Mahmud. B)Ma'mun ibn Muhammad.
C) Mahmud ibn Mansur. D)Muhammad ibn Ma'mun.

**3. Qachon Xorazmda afrig'iylar sulolasi barham topdi?**
A) 993-yil. B) 994-yil. C) 995-yil. D) 996-yil.

**4. Kim Xorazmda afrig'iylar sulolasiga barham berdi?**
A) Mansur ibn Mahmud. B)Ma'mun ibn Muhammad.
C) Mahmud ibn Mansur. D)Muhammad ibn Ma'mun.

**5. 995-1017-yillarda Xorazmda qaysi sulola hukmronlik qilgan?**
A) Anushteginlar. B) Ma'muniylar.
C) Oltintoshlar. D) Afrig'iylar.

**6. Xorazmda Ma'muniylar sulolasi hukmronligiga kim asos solgan?**
A) Mansur ibn Mahmud. B)Ma'mun ibn Muhammad.
C) Mahmud ibn Mansur. D)Muhammad ibn Ma'mun.

**7. 995-1221-yillarda Xorazmshohlar davlatining poytaxti qaysi shahar edi?**
A) Xiva. B) Hazorasp. C) Kat. D) Urganch.

**8. Xorazmshohlar davlati ma'muriy jihatdan nimalarga ajratilib boshqarildi?**
1. Viloyat. 2. Tuman. 3. Shahar. 4. Mahalla.
5. Qishloq. 6. Qabila.
A) 1-2-3. B) 4-5-6. C) 1-3-5. D) 2-4-6.

**9. Xorazmshohlar davlatida eng yuqori lavozimlardan biri qanday unvonga ega bo'lgan?**
A) "Hojib ul-hujob". B) "Xo'jayi buzruk"
C) "Shayx ul-islom". D) "Shayx ur-rais"

**10. Xorazmshohlar davlatida qaysi lavozim devonxona ishlari mas'ul bo'lgan?**
A) "Hojib ul-hujob". B) "Xo'jayi buzruk".
C) "Shayx ul-islom". D) "Shayx ur-rais".

**11. Xorazmshohlar davlatida qaysi lavozim harbiy safarlar vaqtida hukmdor nomidan davlatni idora etgan?**
A) "Hojib ul-hujob". B) "Xo'jayi buzruk".
C) "Shayx ul-islom". D) "Shayx ur-rais".

**12. Xorazmda qaysi sulola davrida "Dorul hikma va maorif' ("Bilimdonlik va maorif uyi") tashkil etiladi?**
A) Anushteginlar. B) Ma'muniylar.
C) Oltintoshlar. D) Afrig'iylar.

**13. Mahmud G'aznaviy qachon Xorazmni zabt etgan?**
A) 1017-yil. B)1018-yil. C)1019-yil. D)1020-yil.

**14. Xorazm qachon Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi?**
A) 1037-yil. B)1038-yil. C) 1039-yil. D)1040-yil.

**15. Saljuqiyilarning qaysi hukmdori o'z ma'murlaridan Anushteginni Xorazmga noib qilib tayinlaydi?**
A) Sulton Sanjar. B) Malikshoh.
C) Alp Arslon D) To'g'rul.

**16. 1097-1127-yillarda kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Alovuddin Muhammad. B) Qutbiddin Muhammad.
C) Jaloliddin Manguberdi. D) Sultonshoh Mahmud

**17. 1127-1156-yillarda kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Takash. B) Sultonshoh Mahmud
C) Elarslon. D) Otsiz.

**18. 1156-1172-yillarda kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Takash. B) Sultonshoh Mahmud.
C) Elarslon. D) Otsiz.

**19. 1172-yil kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Alovuddin Muhammad. B) Sultonshoh Mahmud.
C) Elarslon. D) Otsiz.

**20. 1172-1200-yillarda kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Takash. B) Sultonshoh Mahmud.
C) Elarslon. D) Otsiz.

**21. 1200-1220-yillarda kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Alovuddin Muhammad. B) Takash.
C) Jaloliddin Manguberdi. D) Sultonshoh Mahmud.

**22. 1220-1231-yillarda kim Xorazmshoh bo'lgan?**
A) Alovuddin Muhammad. B) Takash.
C) Jaloliddin Manguberdi. D) Sultonshoh Mahmud.

**23. Kim "Xorazmshoh" unvonini tiklagan?**
A) Alovuddin Muhammad. B)Qutbiddin Muhammad.
C) Jaloliddin Manguberdi. D) Takash.

**24. Xorazmning mustaqilligi kimning nomi bilan bog'liqdir?**
A) Takash. B) Alovuddin Muhammad.
C) Elarslon. D) Otsiz.

**25. Dastavval Otsiz kimlarni o'ziga bo'ysundiradi?**
A) Turkman va qipchoqlar. B) Mo'g'ul va o'g'uzlar.
C) Jaloyiriy va naymanlar. D) Yag'mo va chig'illar.

**26. Kim Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi?**
A) Takash. B) Afrig'. C) Elarslon. D) Otsiz.

**27. Kim Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar**

**davlatining poydevorini barpo etadi?**
A) Takash. B) Afrig'. C) Elarslon. D) Otsiz.
**28. Qachon Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar?**
A) 1153-yil. B) 1154-yil. C)1155-yil. D) 1156-yil.
**29. Kimga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar?**
A) Sulton Sanjar. B) Malikshoh.
C) Alp Arslon. D) To'g'rul.
**30. Dastavval Saljuqiylar davlatidan qayerlar ajralib ketadi?**
A) Yaqin Sharq va Xorazm.
B) Kichik Osiyo va Kermon.
C) Uzoq Sharq va Xuroson. D) O'rta Osiyo va Yettisuv.
**31. So'ngra Saljuqiylar davlatidan qayerlar mustaqil bo'lib oladi?**
1. Kermon. 2. Turkiya. 3. Xorazm. 4. Fors.
5. Ozarbayjon. 6. Xuroson.
A) 1-2-3. B) 4-5-6. C) 1-3-5. D) 2-4-6.
**32. Xorazm davlati kimning davrida juda kengayadi?**
A) Takash. B) Alovuddin Muhammad.
C) Elarslon. D) Otsiz.
**33. Kim Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi?**
A) Takash. B) Afrig'. C) Elarslon. D) Otsiz.
**33. Qachon Nishopur, Ray va Marv shaharlari zabt etiladi?**
A) 1185-1191-yillarda. B) 1186-1192-yillarda.
C) 1187-1193-yillarda. D) 1188-1194-yillarda.
**34. Qachon Takash Saljuqiylar sultoniga qaqshatqich zarba beradi?**
A) 1193-yil. B) 1194-yil. C) 1195-yil. D) 1196-yil.
**35. Takash Saljuqiylaming qaysi sultoniga qaqshatqich zarba beradi?**
A) Sulton Sanjar. B) Malikshoh.
C) Alp Arslon. D) To'g'rul.
**36. Takash qachon Eronni Xorazmga bo'ysundiradi?**
A) 1193-yil. B) 1194-yil. C) 1195-yil. D) 1196-yil.
**37. Alovuddin Muhammad qachondan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarga qaramlikdan ozod etishga kirishdi?**
A) 1205-yil. B) 1206-yil. C) 1207-yil. D) 1208-yil.
**38. Qachon qoraxitoylar mag'lubiyatga uchratiladi?**
A) 1209-yil. B) 1210-yil. C) 1211-yil. D) 1212-yil.
**39. Qayerda qoraxitoylar mag'lubiyatga uchratiladi?**
A) Zarafshon vodiysi. B) Farg'ona vodiysi.
C) Ohangaron vodiysi. D) Talos vodiysi.
**40. XIII asr boshida Xorazmning shimoli g'arbiy va g'arbiy chegarasi qaysi dengiz sohillariga qadar borar edi?**
A) Qizil va Qora dengizi. B) Karib va Boltiq dengizi.
C) Sariq va Egey dengizi. D) Orol va Kaspiy dengizi.
**41. XIII asr boshida Xorazmning chegarasi janubi g'arbda qayerga qadar borar edi?**
A) Shom. B) Eron. C) G'azna. D) Iroq.
**42. XIII asr boshida Xorazmning janubi sharqiy hududlari qaysi hududdan o'taredi?**
A) Iroq. B) G'azna. C) Nishopur. D) Qandahor.
**43. XIII asr boshida Xorazmning shimoli sharqiy chegarasi qayerlardan o'tar edi?**
A) Kavkazorti va Kichik Osiyo.
B) Xuroson va Shimoliy Sibir.
C) Yettisuv va Dashti Qipchoq.
D) Oltoy va Sharqiy Turkiston.
**44. Qaysi Xorazmshoh "Iskandari soniy" deb maqtalgan?**
A) Alovuddin Muhammad. B)Qutbiddin Muhammad.
C) Jaloliddin Manguberdi. D)Abulg'oziy Bahodirxon.
**45. Xorazmshoh saroyida necha hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo'lgan?**
A) 25. B) 26. C) 27. D) 28.
**46. "Iskandari soniy" bu?**
A) "Birinchi Iskandar". B) "Ikkinchi Iskandar".
C) "Uchinchi Iskandar". D) "To'rtinchi Iskandar".
**47. Qachon O'tror abolisi xorazmshohga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?**
A) 1209-yil. B) 1210-yil. C)1211-yil. D) 1212-yiI.
**48. Qachon Samarqand aholisi xorazmshohga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?**
A) 1209-yil. B) 1210-yil. C)1211-yil, D) 1212-yil.
**49. Xorazmshohlar davlatining beqarorlik holatini yaqqol ko'rsatgan omilni aniqlang.**
A) Ko'chmanchilarning doimiy hujumi
B) Iqto tizimi
C) Viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning ko'pgina tabaqalari noroziligi, qo'shin va saroyda fitnalarning avj olishi
D) Ichki va tashqi savdoning kasodga uchrashi
**50. Quyidagilardan xorazmshoh Otsiz faoliyatiga ta'luqli bo'lganlarini aniqlang.**
1) Xorazmshoh unvonining qayta tiklanishi;
2) Turkman va qipchoqlarning bo'ysundirilishi;
3) Eronning Xorazmga bo'ysundirilishi;
4) Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolining egallanishi;
5) Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlati poydevorining barpo etilishi
6) Movarounnahrning qoraxitoylarga qaramlikdan ozod etilishi
A) 2,4,5 B) 1,2,4,5 C) 2,4,6 D) 1,3,5,6

## 19-§. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari

**1. Temuchin nechanchi yillarda yashagan?**
A) 1153-1225-yillarda. B) 1154-1226-yiiiarda.
C) 1155-1227-yillarda. D) 1156-1228-yillarda.
**3. Qachon Temuchin ulug' xon (qoon) deb e'lon qilinadi?**
A) 1205-yil. B) 1206-yil. C)1207-yil. D)1208-yil.
**4. Qayerda Temuchin ulug' xon (qoon) deb e'lon qilinadi?**

A) Ili daryosi bo'yida. B) Kalka daryosi bo'yida.
C) Chu daiyosi bo'yida. D) Onon daiyosi bo'yida.

**5. Kimga "Chingiz" laqabi beriladi?**

A) Yesugay. B) Nurxachi. C) Jamuxa. D) Temuchin.

**6. Mo'g'ullar davlatiga qachon asos solinadi?**

A) 1205-yil. B) 1206-yil. C)1207-yil. D 1208-yil.

**7. Chingizxon olib borgan urushlar natijasida, ... bo'lgan viloyatlar Mo'g'ullar davlati hukmronligi ostiga birlashtirildi.**

A) Sariq dengiz sohilidan to Oloy tog'larining g'arbiy etaklarigacha
B) Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog'(Tyanshan ) tizmasining g'arbiy etaklarigacha
C) O'tukan vodiysidan to Tangritog' (Tyanshan) tizmasining sharqiy chegarasigacha
D) Shimoli-sharqiy Xitoydan to Elsuvi daryosining yuqori oqimigacha

**8. Chingizxon huzuriga Xorazmshoh kim boshchiligida o'z elchilarini yuboradi?**

A) Badruddin Amid. B) Fahriddin Habash.
C) Sayfuddin Ag'roq. D) Bahouddin Roziy.

**9.Qachon Chingizxon huzuriga Xorazmshoh o'z elchilarini yuboradi?**

A) 1213-yil. B) 1214-yil. C) 1215-yiL D) 1216-yil.

**10. Xorazmshoh huzuriga Chingizxon kim boshchiligida o'z elchilarini yuboradi?**

A) Mahmud Tavg'ach. B) Mahmud Torobiy.
C) Mahmud Yalavoch. D) Mahmud Yazdiy.

**11. Qachon Xorazmshoh huzuriga Chingizxon o'z elchilarini yuboradi?**

A) 1217-yil. B) 1218-yil. C) 1219-yil. D) 1220-yil.

**12. Mahmud Yalavoch qayerlik savdogar?**

A) Xorazm. B) Samarqand. C) Buxoro. D) Toshkent.

**13. Chingizxon elchilarini Sulton Muhammad 1218-yilning bahorida qaysi shaharda qabul qiladi?**

A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**14. Chingizxonning 1218-yilda 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogarlaridan tashkil topgan savdo karvoni qaysi shahar tomon borar edi?**

A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**15. Nima uchun Chingizxon Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi?**

A) Sulton Muhammad bilan birgalikda Xitoyga harbiy yurish qilish uchun
B) Ikki buyuk davlatlar o'rtasida savdo yo'lini barpo qilish uchun
C) Sulton Muhammaddan kechirim so'rash va ikki davlat o'rtasida harbiy ittifoq tuzish uchun
D) Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk qo'shni davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun

**16. Chingizxonning savdo karvoni O'trorda ushlab qolinadi va kim tomonidan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi?**

A) Qutlug'xon. B) O'zloqshoh
C) To'g'ayxon. D) G'oirxon.

**17. Chingizxon Sulton Muhammad huzuriga aybdorlarni jazolashni va Inolchiqni tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qilib kimni elchi qilib yuborgan?**

A) Safiy Aqra' Hojib. B) Abu Bakr Kuluiy.
C) Ibn Kafroj Bug'ro. D) Amir Hoji Barlos.

**18. Nima uchun Sulton Muhammad Xorazmga kelgan Chingizxonning elchisini o'ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyurgan?**

A) Chingizxonning Sulton Muhammadni G'arbning sohibqironi, o'zini esa Sharqning podshosi deb hisoblagani uchun
B) Chingizxon Sulton Muhammadni qudratli podshoh sifatida bilib, uni o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rishini bildirgani uchun
C) Chingizxon Sulton Mnhammaddan karvonni talagan O'tror hokimini tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qilgani uchun
D) Chingizxonning musulmon savdogarlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalangani uchun

**19. Qaysi voqealar Xorazmshohlar va Chingizxon davlatlari o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi?**

A) Chingizxon tomonidan jo'natilgan karvonning talanishi va Chingizxon elchisini Xorazmshoh tomonidan o'ldirilishi
B) Chingizxon Sulton Muhammaddan karvonni talagan O'tror hokimini tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qilganligi
C) Sharqiy Turkistonni Chingizxon tomonidan bosib olinishi
D) Naymanlarga Xorazmshoh tomonidan harbiy madad berganligi

**20. Qaysi voqea Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga yurish boshlashiga bahona bo'ldi?**

A) Qoraxitoylarni Xorazm tomonidan bosib olinishi
B) Movarounnahrda Qoraxoniylar hokimiyatiga Xorazm tomonidan barham berilganligi
C) Og'ir soliqlardan ezilgan Xorazm xalqining Sulton Muhammadga nisbatan e'tiqodi susayib ketganligi
D) O'tror voqeasi va Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi

**21. Xorazmshohlar davlatida kim o'z qabiladoshlari manfaati yo'lida saroyda ko'tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg'unlashtirib qo'ygan edi?**

A) Turkon Xotun B) Ibn Kafroj Bug'ro
C) G'oirxon D) Mahmud Yalavoch

**22. Xorazmshoh Sulton Muhammadning volidasi qanday nom bilan shuhrat topgan edi?**

A) Uljoy Turkon B) Turkon Xotun
C) Takina Xotun D) Turmush Og'o

**23. Xorazmshoh Sulton Muhammad o'zini kim deb hisoblardi?**

A) Iskandari Soniy B) Amir ul-mo'min

C) Yetti iqlim sultoni D) Shahanshoh

**24. Qaysi Xorazmshoh o'z hukmronligining so'ngida "Davlat kengashi" ta'sis etadi?**

A) Alovuddin Muhammad. B) Qutbiddin Muhammad.

C) Jaloliddin Manguberdi. D) Abulg'oziy Bahodirxon.

**25. "Davlat kengashi" ga necha nafar bilimdon vakillar jalb etiladi?**

A) 5. B) 6. C) 7. D) 8.

**26. 1218-yilning bahorida...**

A) Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida savdo shartnomasi tuzildi

B) Chingizxon Samarqandni sakkiz kunlik qamaldan so'ng bosib oldi

C) Mo'g'ul qo'shinlari Binokat va Xo'jand shaharlariga hujum boshladi

D) Sulton Muhammad Chingizxon elchilarini Buxoro shahrida qabul qildi

## 20-§. Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va uning oqibati

**1. Askarlarning umumiy soni jihatdan Xorazmshoh birmuncha ustunroq bo'lishiga qaramasdan nima sababdan bu ustunlikdan foydalanish imkoni bo'lmadi?**

A) Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar

B) Xorazmshoh tomonidan amalga oshirilayotgan harbiy islohotlarning tugallanmay qolganligi

C) Askarlar zamonaviy harbiy aslahalar bilan to'la ta'minlanmagan edi

D) Sarkardalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar

**2. Xorazmshoh Sulton Muhammad nima sababdan Chingizxon bilan bo'ladigan urush arafasida katta qo'shinni bir joyga to'plashdan qo'rqqan?**

A) Qo'shin bir joyda to'plansa mamlakatdagi shaharlar mudofaasiz qolishi mumkin edi

B) Bir joyda to'plangan qo'shin uni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi

C) Harbiy islohot tugallanmaganligi uchun

D) Askarlar zamonaviy harbiy aslahalar bilan to'la ta'minlanmagan edi

**3. Sulton Muhammad Chingizxon bilan bo'ladigan urushda qaysi jang usulini qo'llashga qaror qiladi?**

A) Pistirma qo'yish B) Mudofaa taktikasi

C) To'lg'ama D) Piyoda jang qilish

**4. Qachon Chingizxon Xorazmshohga qarshi yurish boshladi?**

A) 1219-yilning qishida. B) 1219-yilning bahorida.

C) 1219-yilning yozida. D) 1219-yilning kuzida.

**5. O'rta asrlardagi O'tror shahri qayerda joylashgan edi?**

A) Amudaiyoning quyi oqimida

B) Zarafshon bo'yida

C) Sirdaryo bo'yida D) Amudaryo o'rta oqimida

**6. O'tror qamali necha oy davom etgan?**

A) 5 oy. B) 6 oy. C) 7 oy. D) 8 oy.

**7. O'tror mudofasining eng og'ir paytida kim o'z qo'shini bilan shahar darvozasidan chiqib, mo'g'ullarga taslim bo'lgan?**

A) Qoracha Hojib. B) Qora Yusuf.

C) Baroq O'g'lon. D) Hamid Pura.

**8. O'tror noibi G'oyirxon (Inolchiq) qayerda kurashni yana bir oy davom ettirgan?**

A) Arkda B) Shahriston

C) Rabot D) Ko'handiz

**9. O'tror noibi G'oyirxon (Inolchiq) qayerga olib borilib, qiynab o'ldiriladi?**

A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**10. 1220-yilning 16-fevralida mo'g'ullar qayerni egallaydilar?**

A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**11. Buxoro qamali necha kun davom etdi?**

A) 8 kun B) 12 kun C)20 kun D) 15 kun

**12. Chingizxon amri bilan qaysi shahar yoqib yuboriladi?**

A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**13. 1220-yilning mart oyida mo'g'ullar qayerni egallaydilar?**

A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.

**14. Chingizxon Samarqanddan tashqarida joylashgan qaysi qasrdan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qiladi?**

A) Ko'ksaroy. B) Bo'stonsaroy.

C) Oqsaroy. D) Oltinsaroy.

**15. Samarqand shahri ostonasida mo'g'ullar bilan necha kun shiddatli janglar davom etadi?**

A) 1 kun. B) 2 kun. C) 3 kun. D) 4 kun.

**16. Mo'g'ullar Samarqandda xiyla ishlatib qancha qo'shinni qirib tashlaydi?**

A) 20 ming B) 30 ming C) 40 ming D) 50 ming

**17. Qaysi shahar Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi?**

A) Termiz. B) O'tror. C) Xo'jand. D) Nasaf.

**18. Temur Malik qaysi shaharning hokimi bo'lgan?**

A) Termiz. B) O'tror. C) Xo'jand. D) Nasaf.

**19. Temur Malik mo'g'ullarga qarshi kurashni qancha vaqt kurash olib bordi?**

A) 1 oy B) 2 oy C)3 oy D) 5 oy

**20. Temur Malik qaysi shaharlar mudofaasida qatnashgan?**

1. Buxoro. 2. O'tror. 3. Xo'jand. 4. Urganch.

A) 1,3 B) 2,4 C) 1,4 D) 3,4

**21. Chingizxon qo'shinlari qachon Urganchga yurish boshlaydi?**

A) 1221-yilning boshida B)1220-yilning avgustida

C) 1220-yilning o'rtalarida D)1219-yilning oxirida

**22. Xorazmshohlar poytaxtida xorazmliklarning qancha qo'shini turardi.**

A) 100 ming B) 110 ming

C) 210 ming D) 220 ming

**23. Chingizxon Urganchni qamal qilganida kimga ahli a'yonlari, barcha yor-u do'stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etgan?**
A) Najmiddin Kubro B) Muzaffar Malik
C) Sayfuddin Ag'roq D) Jaloliddin Manguberdi
**24. Ahmad ibn Umar Xivaqiy qanday nom bilan shuhrat topgan?**
A) Ahmad Yassaviy. B) Bahouddin Naqshband.
C) Najmiddin Kubro. D) Abduxoliq G'ijduvoniy.
**25. Najmiddin Kubro necha yoshida qahramonlarcha halok bo'ladi?**
A) 73 yosh. B) 74 yosh. C) 75 yosh. D) 76 yosh.
**26. Urganch uchun qonli kurash necha oy davom etgan?**
A) 5 oy. B) 6 oy. C) 7 oy. D) 8 oy.
**27. Mo'g'ullar qancha san'at, hunar arboblarini, yosh bolalar va ayollarni ajratib olib, Mo'g'ulistonga jo'natadilar?**
A) 100 ming B) 120 ming
C) 150 ming D) 200 ming
**28. Har bir mo'g'ul jangchisiga necha nafardan asir to'g'ri keldi?**
A) 14 B) 23 C) 24 D) 13
**29. Qaysi shxsning taxallusi "dinning ulug' yulduzi" ma'nosini beradi?**
A) Ahmad Yassaviy. B) Bahouddin Naqshband.
C) Najmiddin Kubro. D) Jaloliddin Manguberdi.
**30. Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi qachon nishonlangan?**
A) 1998-yil B) 1995-yil
C) 1997-yil D) 1996-yil

## 21-§. Jaloliddin Manguberdining Xorazm taxtiga o'tirishi

**1. Qaysi buyuk shaharlarning qo'ldan ketishi Muhammad Xorazmshohni larzaga soldi?**
1. Buxoro 2. Urganch 3. Samarqand
4. Termiz 5. O'tror 6. Xo'jand
A) 1,2,4 B) 2,4,6
C) 1,3,6 D) 2,3,5
**2. Muhammad Xorazmshohdan qaysi shahar hokimlari yuz o'girdi?**
A) Qunduz va Badaxshon B) Hisor va Termiz
C) Sanmarqand va O'tror D) Qunduz va O'tror
**3. Qachon Muhammad Xorazmshoh Nishopurga keladi?**
A) 1220-yilning martida B) 1220-yilning yanvarida
C) 1219-yilning martida D)1220-yilning aprelida
**4. Alovuddin Muhammad qaysi dengizdagi Ashura orolida vafot etgan?**
A) Orol dengiz. B) Qora dengiz.
C) Kaspiy dengiz. D) Qizil dengiz.
**5. Muhammad Xorazmshoh qachon vafot etadi?**
A) 1220-yilning martida B) 1220-yilning dekabrda
C) 1219-yilning martida D) 1220-yilning aprelida
**6. Muhammad Xorazmshoh kimni taxt vorisi etib tayinlaydi?**
A) Temur Malik B) Qutlug'xon
C) Sayfuddin Ag'roq D) Jaloliddin Manguberdi
**7. Mo'g'ullar tomonidan Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo'g'ul jangarilarining bosqinchilik yurishi qaysi shaharlarga yo'naltiradi?**
A) G'azna, Bomiyon, Hindiston
B) Yangikent, Naxshab, Dehiston
C) Balx, Hirot, Marv va G'azna
D) Astrobod, Niso, Nishopur va Mashhad
**8. Qayerda Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ustidan dastlabki yirik g'alabaga erishgan?**
A) Valiyon qal'asida. B) Xumoyun qal'asida.
C) Larijon qal'asida. D) Moxuvon qal'asida.
**9. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi kimni 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi?**
A) Sukatu Cho'rbiy. B) Mekon Mengli.
C) Torbey Toqshin. D) Shiki Xutuxu.
**10. Jaloliddin Manguberdi G'azna yaqinidagi Parvon dashtidagi jangda kimni tor-mor etgan?**
A) Sukatu Cho'rbiy. B) Mekon Mengli.
C) Torbey Toqshin. D) Shiki Xutuxu.
**11. Nima sababdan Parvon dashtidagi g'alabadan so'ng Jaloliddin lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlandi?**
A) Xurosonga hokim tayinlashda
B) Movarounnahrni mo'g'ullardan qaytarib olish rejasini ishlab chiqishda
C) G'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda
D) Sind daryosi bo'yida bo'ladigan jang rejasini ishlab chiqishda
**12. Qaysi voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi kuchsizlanib qoladi?**
A) Sind daryosi bo'yida bolgan jangdan so'ng
B) Valiyon qal'asi yonida bo'lgan jangdan so'ng
C) Parvon dashtidagi g'alabadan so'ng
D) "Cho'li Jaloliy"da bo'lgan jangdan so'ng
**13. Jaloliddin Manguberdi qo'shindan ajralib ketgan lashkarboshilarni ko'rsating.**
A) Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar
B) Temur Malik, Badriddin Qozixon va Qutlug'xon
C) Xumortegin, O'zloqshoh va Oqshoh
D) Inolchuq, Ibn Kafroj Bug'ro va Bahouddin Roziy
**14. Qaysi vaziyatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi?**
A) Parvon dashtidagi jangdan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchini kuchsizlanib qolganidan
B) Sind daryosi bo'yida bo'lgan jangdan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchini kuchsizlanib qolganidan
C) Valiyon qal'asi yonida bo'lgan jangdan so'ng Jaloliddmning harbiy kuchini kuchsizlanib qolganidan
D) Jaloliddinning hindlar bilan bo'lgan jangdagi

mag'lubiyatidan so'ng

**15. Jaloliddin Manguberdi bilan Chingizxon qo'shinlari o'rtasida Sind (Hind) daryosi bo'yidagi jang qachon bo'lgan?**
A) 1221-yil 25-noyabr. B) 1221-yil 26-noyabr.
C) 1221-yil 27-noyabr. D) 1221-yil 28-noyabr,

**16. Hozirgi paytda qaysi daryoning bir tomoni "Ot sakrash", narigi tomoni "Cho'li Jaloliy" deb ataladi?**
A) Gang. B) Ural. C) Sind. D) Frot.

**17. So'nggi Xorazmshoh kim?**
A) Alovuddin Muhammad. B) Qutbiddin Muhammad.
C) Jaloliddin Manguberdi. D) Abulg'oziy Bahodirxon.

**18. Mo`g`ullar tomonidan buzib tashlangan mashhur Sultonband qaysi vohaning bosh suv to`g`oni edi?**
A) Buxoro vohasining B) Qashqadaryo vohasining
C) Tus vohasining D) Marv vohasining.

**19. Jaloliddin Manguberdi (to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) qachon yashagan?**
A) 1199-1231-yil B) 1198-1231-yil
C) 1188-1231-yil D) 1197-1231-yil

## 22-§. JALOLIDDIN MANGUBERDI MOHIR SARKARDA

**1. Jaloliddin Sind darayosidan kechib o'tganidan so'ng qaysi viloyatning hukmdori Jaloliddin Manguberdining og'ir ahvolidan foydalanib, unga qarshi hujum qiladi?**
A) Shatra B) Bengaliya
C) Bixar D) Dehli

**2. "Sening ortingda islomning dushmani turgani sir emas. Sen butun musulmonlarning sultonisan. Ushbu so'zlar kim tomonidan Jaloliddinga yuborilgan?**
A) O'zbekxon B) Xalifa Nosir
C) Shamsiddin Eltutmish D) G'iyosiddin Pirshoh

**3. Jaloliddin Manguberdi qaysi hududda davlat barpo qiladi?**
A) Afg'oniston B) Xuroson
C) Shimoliy Hindistonda D) Eron

**4. Jaloliddin Manguberdining ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq xiyonat qilib kimning tomoniga o'tganlar?**
A) Eltutmish B) Xalifa Nosir
C) O'zbekxon D) Chingizxon

**5. Jaloliddin Manguberdi Hindistonda qancha vaqt hukmronlik qiladi?**
A) 3 yil B) 5 yil
C) 7 yil D) 10 yil

**6. Jaloliddin Manguberdi qachon Iroqqa yo'l oladi**
A) 1225-yil B) 1224-yil
C) 1223-yil D) 1226-yil

**7. Jaloliddin o'z qo'shini bilan dastlab Kirmon, keyin Sheroz va Isfahonga borib, mahalliy hukmdorlar bilan kelishib, biroz mustahkam kuchga ega bo'ladi. Ammo bu yerlar kimga tegishli edi?**
A) O'zbekxon B) Xalifa Nosir
C) Shamsiddin Eltutmish D) G'iyosiddin Pirshoh

**8. Jaloliddin Chingizxonga ustiga yurishga umumrahbar bo'lishni o'ylab, kimga maktub yo'llaydi?**
A) O'zbekxon B) Xalifa Nosir
C) Shamsiddin Eltutmish D) G'iyosiddin Pirshoh

**9. Qaysi voqeadan so'ng Jaloliddinga mingta otliq va besh mingta yaxshi qurollangan jangchilar taslim bo'ladilar?**
A) Basra jangidan so'ng
B) Isfahon yaqinidagi jangdan so'ng
C) Shatra hukmdorini mag'lub bo'lgach
D) Eltutmishning maktubidan so'ng

**10. Xalifa Nosir va Jaloliddin qo'shini qayerda to'qnashdi?**
A) Basra yaqinida B) Isfahon yaqinida
C) Garni qalasida D) Marog'a shahrida

**11. Jaloliddin Xalifa Nosirning necha minglik qo'shinini yengdi?**
A) 20 ming B) 30 ming C) 50 ming D) 60 ming

**12. Bu davrda Ozarbayjon hukmdori kim edi?**
A) O'zbek B) Mahmud
C) Shamsiddin Eltutmish D) G'iyosiddin Pirshoh

**13. Ozarbayjon hukmdori ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o'z holiga tashlab qo'ygan edi, davlatni amalda kim boshqarar edi?**
A) Bosh vazir B) Malika Xotun
C) Beklarbegi D) Mehri Xotun

**14. Jaloliddin Manguberdi qachon Marog'a shahrini jangsiz qo'lga kiritadi?**
A) 1226-yil iyun B) 1224-yil may
C) 1225-yil may D) 1227-yil avgust

**15. Marog'a egallangach qaysi shaharlar Xorazmshohga taslim bo'ldi?**
A) Balx va Kobul B) Tabriz va Isfaxon
C) Tabriz va G'azna D) Sheroz va G'azna

**16. Jaloliddin qaysi shaharni yangi barpo etgan davlatining poytaxtiga aylantirdi**
A) Sheroz B) Isfahon
C) G'azna D)Tabriz

**17. Ozarbayjon egallangach, Jaloliddin Manguberdi o'z qo'shinini qaysi hududga boshlaydi?**
A) Eron B) Gurjiston
C) Armaniston D)Misr

**18. 1225-yil ... da ... qal'asi yaqinida gurjilarning ... minglik qo'shinini tor-mor keltiradi va Tiflisga qarab yuradi?**
A) Avgust, Garni, 60 B) May, Marog'a, 60
C) Avgust, Garni, 50 D) Iyun, Kobul, 70

**19. Qachon Gurjiston to'liq egallanadi?**
A) 1227-yilda B) 1226-yilda
C) 1225-yilda D) 1228-yil

**20. Ozarbayjon, Shirvon (Armaniston) va Gurjiston Xorazmshoh qo'liga o'tgach, mo'g'ullar qaysi shahar yonida paydo bo'ladi?**
A) Sheroz B) Isfahon
C) G'azna D)Tabriz

**21. 1227-yil sentabrda Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarning kim boshliq qo'shinini yengadi?**
A) Taynol no'yon B) Jaynoq sulton
C) Maman botir D) Alouddin Qayqubod
**22. Jaloliddin Manguberdiga qarshi muxolif kuchlarni birlashtirgan Alouddin Qayqubod qayirning hukmdori edi?**
A) Jazira B) Ko'niya
C) Gurjiston D) Ozarbayjon
**23. Jaloliddinning ukasi G'iyosiddin Pirshohni kim o'ldiradi?**
A) Ko'niya sultoni B) Jazira Hukmdori
C) Misr sultoni D) Kirmon hokimi
**24. Mo'g'ullar qaysi voqeadan so'ng, Jaloliddin davlati ular o'ylagandek kuchli emasligini anglab, u bilan sulh tuzish fikridan qaytishdi?**
A) Jaloliddiga vazirlari xiyonat qilgach
B) Ko'niya sultonining Jaloliddinga maktubidan so'ng
C) Jaloliddinning ukasi halok bo'lgach
D) Jaloliddinning ukasi xiyonat qilgach
**25. Jaloliddinga fitna uyushtira boshlagan bosh vaziri kim edi?**
A) Alouddin Qayqubod B) Sunqurjiq
C) Yazidak pahlavon D) Sharofulmulk
**27. "Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o'z tengqurlarining sarvari ekan", deb Jaloliddinga baho bergan shaxs kim edi?**
A) Taynol no'yon B) Jaynoq sulton
C) Xalifa Nosir D) Alouddin Qayqubod
**28. 1230-yil avgustda qaysi davlatlarning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchradi?**
1.Ko'niya 2.Gurjiston 3.Jazira
4.Damashq 5.Kirmon 6.Misr
A) 1,2,4 B) 1,3,4,6
C) 1,2,4,6 D) 2,3,5,6
**29. 1230-yil avgustida Sulton Jaloliddin qayerda mag'lubiyatga uchradi?**
A) Tiflis yaqinida B) Arzinjon yaqinida
C) Isfaxon yaqinida D) Sherozda
**30. 1230-yil avgustda qaysi davlatlarning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchradi?**
1. Ko'niya 2. Jazira 3. Damashq 4. Misr
A) 1,2 B) 2,3,4 C) 1,4 D) 1,2,3,4
**31. Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan qachon Ozarbayjonga bostirib kirdilar?**
A) 1231-yilda B) 1230-yili
C) 1229-yili D) 1228-yili
**32. Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ta'qibdan qutulib qayerga chekinadi?**
A) Ozarbayjonga B) Tiflisga
C) Kurdiston tog'lariga D) Eron hududiga
**33. Sulton Jaloliddinning hayotligi davrida mo'g'ullar ... ni bosib ololmadilar?**
A) O'rta Sharq B) O'rta Sharq
C) O'rta Osiyo D) Kavkaz
**34. 1256-yili mo'g'ullar ... ?**
A) Eronni egalladi B) Dashti Qipchoqni zabt etdi
C) Xulokuni o'dirishdi D) O'rta Sharqni egallashdi
**35. Jaloliddin Manguberdi necha yil davomida mo'g'ullarni nafaqat O'rta Sharqqa, balki Sharqiy Yevropaga ham qo'ymadi?**
A) 10 yil B) 11 yil
C) 13 yil D) 14 yil
**36. Anushteginiylar sulolasi qaysi davrda Xorazmni boshqargan?**
A) 995- 1221-yil B) 1097-1221-yil
C) 1097–1231-yil D) 1097-1225-yil

## 23-§. JALOLIDDIN MANGUBERDI VATAN QAHRAMONI

**1. "Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni" asari kimning qalamiga mansub?**
A) An-Nasaviy B) Ibn al Asir
C) Juvayniy D) Mirxond
**2. Nasaviy qaysi viloyatidagi qal'alardan birining sohibi bo'lgan?**
A) Kobul B) Niso C) Raqqa D) Xalab
**3. Nasaviy qachon Iroqqa boradi?**
A) 1225-yil B)1224-yil
C) 1223-yil D)1226-yil
**4. Eng so'nggi Xorazmshohning hukmdorligi qachon tugaydi?**
A) 1229-yil. B) 1230-yil. C) 1231-yil. D) 1232-yil.
**5. Sulton Jaloliddinning shaxsiy kotibi kim edi?**
A) An-Nasaviy B) Ibn al Asir
C) Ibn Arabshox D) Mirxond
**6. Nasaviy Jaloliddinga bag'ishlangan asarini yozishni qachon boshlagan?**
A) 1235-yil B) 1234-yil
C) 1243-yil D) 1241-yil
**7. "al-Komil-t-tarix " ("Tarix haqida mukammal kitob)" asari muallifini aniqlang?**
A) An-Nasaviy B) Ibn al Asir
C) Juvayniy D) Mirxond
**8. Qaysi asar Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari tarixining islom tarqalishidan to 1231-yilgacha bo'lgan davri haqida ma'lumot beruvchi manbadir?**
A) "Tarixi arba' ulus" B) "Jahon fotihi tarixi"
C) "Tarix haqida mukammal kitob"
D) "Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi"
**9. Alouddin Atomalik Juvayniy qaysi asarida Jaloliddin Manguberdi haqida muhim ma'lumotlar beriladi?**
A) "Tarixi arba' ulus" B) "Jahon fotihi tarixi"
C) "Tarix haqida mukammal kitob"
D) "Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi"
**10. Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasini qachon yozgan?**
A) 1943-yili B) 1944-yili

C) 1947-yili D) 1948-yili

**11. "Tarixi arba' ulus" asarining muallifini aniqlang.**
A) An-Nasaviy B) Ibn al Asir
C) Juvayniy D) Ulug'bek

**12. "Tarixi jahonkushoy" asarining ma'nosi nima?**
A) "Tarix haqida mukammal kitob"
B) "Jahon fotihi tarixi"
C) "Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi"
D) To'rt ulus tarixi

**13. Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma'lumotlar qaysi tillardagi manbalarda ham uchraydi?**
A) Xitoy, mo'g'ul, arman B) Xitoy, mo'g'ul, arab
C) Xitoy, fors, arman D) Lotin, mo'g'ul, arman

**14. "Ravzat us-safo" asari muallifini aniqlang.**
A) An-Nasaviy B) Mirxond
C) Juvayniy D) Ulug'bek

**15. O'zbekiston hukumati qachon "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" qaror qabul qildi?**
A) 1993-yili B) 1999-yili
C) 1997-yili D) 1998-yili

**16. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda qachon keng nishonlandi?**
A) 1993-yili B) 1999-yili
C) 1997-yili D) 1998-yili

**17. Qachon "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi?**
A) 2000-yil 30-avgustda B) 2001-yil 30-mayda
C) 2001-yil 30-avgustda D) 2000-yil 30-iyunda

**18. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi qachon nishonlandi?**
A) 1997-yil 11-noyabr. B) 1998-yil 25-avgust.
C) 1999-yil 5-noyabr. D) 2000-yil 30-avgust.

**19. Kimlarning istilosi oqibatida butun Sharqda shuhrat topgan qurol-aslaha yasash, nafis ipak matolar to'qish, naqshli shishasozlik hunarmandchiligi barham topdi?**
A) Forslar. B) Yunonlar. C) Arablar. D) Mo'g'ullar.

**20. Mo'g'ullar istilosi natijasida qayerning aholisi o'z shaharlarini tark etib chiqib ketdilar?**
A) Samarqand B) Buxoro C) Qarshi D) Termiz .

## 24-§. CHIG'ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI

**1. Chingizxon Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrni kimga topshiradi?**
A) Tulu. B) O'qtoy. C) Jo'ji. D) Chig'atoy.

**2. Chingizxon vafotidan so'ng (1227) kim mo'g'ullar davlatining ulug' xoqoni qilib tayinlandi?**
A) Tulu. B) O'qtoy. C) Jo'ji. D) Chig'atoy.

**3. Chig'atoyxonning ulusni boshqaradigan o'rdasi qayerda edi?**
A) Elsuvi (Ili) daryosi bo'yida.
B) Sind (Hind) daryosi bo'yida.
C) Itil (Volga) daryosi bo'yida.
D) Yoyiq (Ural) daryosi bo'yida.

**4. Viloyatlar va hunarmandchilik shaharlarini boshqarishda Chig'atoy kimlar xizmatidan foydalanadi?**
A) Ko'chmanchi qabila boshliqlaridan
B) Mo'g'ul zadoganlardan
C) Musulmon savdogarlardan
D) O'ziga bo'ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan

**5. Chingizxon Movarounnahrni idora etish ishlarini kimga topshiradi?**
A) Mahmud Tavg'ach B) Mahmud Torobiy.
C) Mahmud Yalavoch. D) Mahmud Yazdiy.

**6. Mahmud Yalavoch qaysi shaharni o'ziga qarorgoh qilib oladi va shu yerda turib, Movarounnahrni idora qila boshlaydi?**
A) Termiz. B) O'tror. C) Xo'jand. D) Nasaf.

**7. Mahmud Yalavoch kimlarga suyanib mo'g'ul xoqonlari talabini ijro qilar va o'zining cheksiz hukmronligini amalga oshirar edi?**
A) Mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko'p sonli askarlarga
B) O'troq aholi ixtiyoridagi ko'p sonli askarlarga
C) Mahalliy zadogonlarga D) Mahalliy chokarlarga

**8. Movarounnahrda harbiy hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari qaysi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'lardi?**
A) Qo'shbegi va muhtasib. B) Bosqoq
C) Dorug'achi va tavg'ach. D) Devonbegi va mustovfiy.

**9. Mo'g'ullar davrida ziroatchilardan olinadigan yer solig'i nima deb yuritilgan?**
A) "Kalon". B) "Qopchur". C) "Targ'u". D) "Shulen".

**10. Mo'g'ullar davrida chorvadorlarga qanday soliq solingan?**
A) "Kalon". B) "Qopchur". C) "Targ'u". D) "Shulen".

**11. Mo'g'ullar davrida davlat xazinasi uchun olinadigan oziq-ovqat solig'i nima deb yuritilgan?**
A) "Kalon". B) "Qopchur". C) "Targ'u". D) "Shulen".

**12. Mo'g'ullar davrida qaysi soliq har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan?**
A) "Kalon". B) "Qopchur". C) "Targ'u". D) "Shulen".

**13. Mo'g'ullar davrida hunarmandlar va savdogarlardan qanday soliq undirilgan?**
A) "Kalon". B) "Qopchur". C) "Targ'u". D) "Shulen".

**14. Targ'u ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan molning nechadan bir qismi hajmida undirilgan?**
A) 1/10. B) 1/20. C) 1/30. D) 1/40.

**15. Kalon hosilning qancha qismi hajmida olingan?**
**7. Qayer Shayx Nuriddinning tasarrufida edi?**
A) Qoshg’ar. B) Yorkand. C) Turkiston. D) Banokat.
**8. O’sha vaqtda kim na Ulug'bek va na Shohruxni tan olardi?**
A) Xudoydod Husayniy. B) Shayx Nuriddin.
C) Muhammad Jahongir. D) Amirak Ahmad.
**9. Shayx Nuriddin qachon temuriylarga qarshi isyon ko’taradi?**
A) 1409-yil. B) 1410-yil. C)1411-yil. D) 1412-yil.
**10. Qachon Shayx Nuriddin boshliq isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug’bek qo’shinlari o’rtasida jang bo’ladi?**
A) 1412-yil 17-aprel. B) 1411-yil 18-aprel.
C) 1409-yil 19-aprel. D) 1410-yil 20-aprel.
**11. Shayx Nuriddin boshliq isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tgan hududni aniqlang.**
A) Samarqand yaqinidagi Qizilravot mavzeyida
B) Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'i yaqinida
C) Sheroz yaqinidagi Zarafshon daryosi bo'yida
D) Samarqandning shimoli-sharqidagi Tarnob qishlog'ida
**12. Shayx Nuriddin boshliq isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek qo'shinlari o'rtasida bo'lgan jangda Ulug’bek mag’lubiyatga uchrab, qayerga tomon chekinadi?**
A) Kalif. B) Hisor. C) Talos. D) Farob.
**13. Kim Samarqandga yetib kelib, Shayx Nuriddin isyonini bostiradi?**
A) Umarshayx. B) Shohrux. C) Mironshoh.
D) Jahongir.
**14. Movarounnahr va Turkistonni to’liq boshqarish necha yashar Ulug’bek qo’liga o’tadi?**
A) 17 yosh. B) 18 yosh. C) 19 yosh. D) 20 yosh.
**15. Movarounnahr va Turkistonni to’liq boshqarish qachon Ulug’bekning qo’liga o’tadi?**
A) 1409-yil B) 1410-yil C) 1412-yil D) 1413-yil
**16. Ulug’bek qachon Farg’ona va Qoshg’arni egallaydi?**
A) 1413-yil. B) 1414-yil. C) 1415-yil. D) 1416-yil.
**17. Qachon Shohrux tomonidan Xorazm Oltin O’rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingan?**
A) 1413-yil. B) 1414-yil. C) 1415-yiI. D) 1416-yil
**18. Shohrux tomonidan Xorazm Oltin O’rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingach Ulug’bek davlatining qaysi chegaralarining tomonlari xavfsizligi barqarorlashgan?**
A) sharqiy va janubiy B) g’arbiy va janubiy
C) g’arbiy va shimoliy D) shimoliy va sharqiy
**19. Nima sababli Ulug’bek Dashti Qipchoqda boshlangan o’zaro nizoga hamda Mo’g’ulistonda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e’tibor berishga va aralashishga majbur bo’ladi?**
A) Mo’g’uliston taxtiga temuriy shahzodani o’tkazish maqsadida
B) Xorazmni Oltin O’rda xonlari tasarrufidan qaytarib olish uchun
C) davlatining shimoli-g’arbiy va shimoli-sharqiy chegaralarining xavfsizligini ta’minlash uchun
D) mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etish maqsadida
**20. Qachon Ulug’bek Mo’g’uliston ustiga yurish boshlaydi?**
A) 1425-yil. B) 1426-yil. C) 1427-yil. D) 1428-yil.
**21. Qayerda sodir bo’lgan to’qnashuvda Ulug’bek mo’g’ullar ustidan g’alaba qozonadi?**
A) Qizilravot mavzeyida B) Tarnob yaqinida
C) Issiqko’1 yaqinidagi D) Damashq qishlog’i yaqinida
**22. Ulug’bek ikki bo’lak nefrit toshini qayerdan o’lja qilib olib kelgan?**

A) Xorazmdan B) Mo'g'ulistondan
C) Dashti Qipchoqdan D) Xurosondan

**23. Ulug'bekning qayerdagi jangda qo'lga kiritilgan o'ljalari orasida ikki bo'lak nefrit toshi bor edi?**
A) Qizilravot mavzeyida B) Tarnob yaqinida
C) Issiqko'1 yaqinida D) Damashq qishlog'i yaqinida

**24. Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonishi natijasida nefritdan nima yasattiriladi?**
A) suv turadigan xum B) Amir Temur maqbarasi uchun qabr toshi
C) ziyofatlar uchun qadah D) taxt kursi - Ko'ktosh

**25. Mo'g'ulistonda bo'lgan urushda Ulug'bek qozongan g'alabaning nishoni tarzida Ilono'tti darasi ichida qachon Ulug'bek tomonidan qoya toshga o'ziga xos "zafarnoma" yozdirilgan?**
A) Hijriy 825-yilda (1425)
B) Hijriy 826-yilda (1426)
C) Hijriy 827-yilda (1427)
D) Hijriy 828-yilda (1425)

**26. Ilono'tti darasi qayerda joylashgan?**
A) Jizzax. B) Farg'ona. C) Toshkent. D) Namangan.

**27. Qayerga qarshi qilingan yurishda Ulug'bekning omadi kelmaydi?**
A) Xorazmga B) Mo'g'ulistonga
C) Dashti Qipchoqqa D) Xurosonga

**28. Shohrux qachon olamdan o'tadi?**
A) 1447-yil 9-mart. B) 1447-yil 10-mart.
C) 1447-yil 11-mart. D) 1447-yil 12-mart.

**29. Shohrux kimning isyonini bostirish vaqtida olamdan o'tadi?**
A) Abulqosim Bobur. B) Ibrohim Sulton.
C) Sulton Muhammad. D) Mirzo Abdullo.

**30. Shohrux qayerda olamdan o'tadi?**
A) Qum. B) Ray. C) Jom. D) Tus.

**31. Ma'lumki, Shohrux vafot etgach odatga ko'ra Hirot taxtiga Shohruxning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek o'tirishi kerak edi. Ammo taxtni kim egallaydi?**
A) Abulqosim Bobur B) Abdulaziz
C) Boysung'ur D) Alouddavla

**32. Alouddavla kimning o'g'li?**
A) Ulug'bek. B) Boysung'ur.
C) Ibrohim. D) Pirmuhammad.

**33. Qachon Alouddavla Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatifning qo'shinini tor-mor qilib, asirga oladi?**
A) 1447-yilning qishida. B) 1447-yilning bahorida.
C) 1447-yilning yozida. D) 1447-yilning kuzida.

**34. Ulug'bek bilan Alouddavla o'rtasida tuzilgan sulhga ko'ra ...**
A) Abdullatif ozod qilinadi, Ulug'bek esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi.
B) Abdulaziz ozod qilinadi, Ulug'bek esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi.
C) Abdullatif ozod qilinadi, Ulug'bek esa Movarounnahrga bo'lgan da'vosidan voz kechadi.
D) Alouddavla Movarounnahr hukmdori deb tan olinadi.

**35. Qachon Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi?**
A) 1448-yilning qishida. B) 1448-yilning bahorida.
C) 1448-yilning yozida. D) 1448-yilning kuzida.

**36. Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini qayerda bo'lgan jangda Alouddavla qo'shinini tor-mor keldrishadi?**
A) Issiqko'l yaqinida. B) Tarnob yaqinida.
C) Sariqko'l yaqinida. D) Qatvon yaqinida.

**37. Movarounnahrda Ulug'bekka qarshi isyon boshlanganligi sababli...**
A) Ulug'bek Abdullatif boshchiligida isyonni bostirish uchun Samarqandga qo'shin jo'natadi
B) Ulug'bek Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi
C) Ulug'bek Xurosonda Abdullatifni qoldirib, o'zi Samarqandga qaytadi
D) Ulug'bek Xurosonni Alouddavlaga qaytarib beradi

**38. Abdullatifning otasiga nisbatan adovat paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bahonani qayd eting.**
A) Ulug'bekning Alouddavla bilan sulh tuzishi
B) Ulug'bekning Abulqosim Bobur foydasiga Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechishi
C) Ulug'bek tomonidan Abdullatifhi Balxga noib qilib tayinlanishi
D) Alouddavla ustidan qozonilgan g'alaba to'g'risida tevarak-atrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olingani, Ixtiyoriddin qal'asidagi xazina Ulug'bek tomonidan olib qo'yilgani

**39. Abdullatif Hirotda necha kun hokimlik qiladi?**
A) 13 kun. B) 14 kun. C) 15 kun. D) 16 kun.

**40. Abdullatif kimning qo'shini Hirotga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib poytaxtni jangsiz bo'shatib, Movarounnahr tomon qochadi?**
A) Abulqosim Bobur. B) Ibrohim Sulton.
C) Sulton Muhammad. D) Mirzo Abdullo.

**41. Ulug'bek farmoni bilan Abdullatif qaysi shaharga noib qilib tayinlangan?**
A) Marv. B) Kobul. C) Balx. D) Hirot.

**42. Abdullatif Balxda qanday solig'ni bekor qilib, savdogarlarni o'z tarafiga og'dirib oladi?**
A) "Chiqim". B) "Xiroj". C) "Tamg'a". D) "Zakot".

**43. Abdullatif kim bilan bog'lanib, uni birlashib Ulug'bekka qarshi kurashga undaydi?**
A) Abulqosim Bobur. B) Ibrohim Sulton.
C) Sulton Muhammad. D) Mirzo Abdullo.

**44. Ulug'bekning katta o'g'li kim?**
A) Abdulaziz. B) Abdullatif.
C) Alouddavla. D) Alovuddin.

**45. Ulug'bekning kichik o'g'li kim?**
A) Abdulaziz. B) Abdullatif.
C) Alouddavla. D) Alovuddin.

**46. Hirotdan Samarqandga qaytar ekan, Ulug'bek old tomondan kimlarning hujumiga duchor bo'ladi?**

A) Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi Amir Abdulholiq hamda oq o'rdalik xonzodalardan Chingiz o'g'lonlaming
B) Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining
C) Oltin O'rda hukmdorining
D)Turkiston hokimi Shayx Nuriddinnmg

**47. Ulug'bek hukmronligi davrida Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchilar qayerlarni talab, vayron qiladilar?**
A) O'tror, Toshkent, Xo'jand tevaragidagi qishloqlarni
B) Kat, Urganch, Marv tevaragidagi qishloqlarni
C) Yangikent, Jand, O'tror tevaragidagi qishloqlarni
D)Toshkent, Shohruxiya, Samarqand va Buxoro tevaragidagi qishloqlarni

**48. Samarqand amirlarining kimga qarshi noroziligi kuchayib, Ulug'bek uni bartaraf qilishga majbur**
A) Abdullatif B) Abdulazizga
C) Alouddavla D) Abulxayrxon

**49. Abdullatif Amudaryodan kechib o'tib, qaysi shaharlarni osongina zabt etadi?**
1. Samarqand. 2. Buxoro. 3. Nasaf. 4. Shahrisabz.
5. Termiz. 6. Xuzor.
A) 1-2-3. B) 4-5-6. C) 1-3-5. D) 2-4-6.

**50. 1449-yil oktabrda qayerda Ulug'bek va Abdullatif qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ladi?**
A) Damashq qishlog'i yaqinida.
B) Sheroz qishlog'i yaqinida.
C) Bag'dod qishlog'i yaqinida.
D) Qohira qishlog'i yaqinida.

**51. Kim Samarqand shahar darvozalarini berkittirib Ulug'bekni ichkariga kirishga qo'ymaydi?**
A) Iskandar Qavchin. B) Sulaymon Qavchin.
C) Ardasher Qavchin. D) Mironshoh Qavchin.

**52. Ulug'bek Samarqanddan tashqari yana qaysi shaharga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo'lishga majbur bo'ladi?**
A)Toshkent B)Samarqand C)Buxoro D)Shohruxiya

**53. Kimning qarshiligiga qaramasdan, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o'ldirilishini uyushtiradi?**
A) Shamsiddin Muhammad Miskin.
B) Fazlulloh Ro'zbehon Isfahoniy.
C) Fazlulloh Abullays Samarqandiy.
D) Zahiriddin Muhammad Bobur.

**54. Mirzo Ulug'bek qachon Samarqand yaqinida fojiali vafot etdi?**
A) 1448-yil B) 1449-yil C) 1451-yil D) 1452-yil

**55. Mirzo Ulug'bek necha yoshida Samarqand yaqinida fojiali vafot etdi?**
A) 53 yoshida. B) 54 yoshida.
C) 55 yoshida. D) 56 yoshida.

**56. Mirzo Ulug'bek Movarounnahrni necha yil idora qildi?**
A) 35 yil. B) 40 yil. C) 45 yil. D) 50 yil.

## 38-§. TEMURIYLAR SALTANATINING INQIROZGA YUZ TUTISHI

**1. Ulug'bek qatl etilib, oradan bir necha kun o'tgach, Abdullatif nima maqsadida o'z inisi Abdulazizni hamda otasiga sodiq bo'lgan amirlarni o'ldirtirdi?**
A) har qanday yordam olishni bartaraf etish
B) Abulqosim Boburdan madad kelmasligi uchun
C) Dashti Qipchoqdan kelayotgan Abulxayrxonni qaytarib yuborish
D) taxt da'vogaridan qutulish

**2. Oradan qancha vaqt o'tib Abdullatifga qarshi saroyda fitna uyushtirilib, u o'ldirildi?**
A) besh yarim oy o'tar-o'tmas
B) olti yarim oy o'tar-o'tmas
C) olti oy o'tar-o'tmas
D) uch yarim oy o'tar-o'tmas

**3. Kim mamlakat fuqarolari tomonidan "padarkush" ("ota qotili") deb la'natlangan?**
A) Abdulaziz. B) Abdullatif.
C) Alouddavla. D) Alovuddin.

**4. Abdullatif o'ldirilgach kimlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi?**
A) Abdulaziz va Abulqosim Bobur
B) Alouddavla va Abulqosim Bobur
C) Mirzo Abdullo va Abu Said
D) Mironshoh Qavchin va Shamsiddin Muhammad Miskin

**5. Abdullatif o'lgandan so'ng muxolifotchi kuchlar Samarqandda kimni hukmdor qilib ko'tarishadi?**
A) Abulqosim Bobur. B) Abu Said.
C) Alouddavla. D) Mirzo Abdullo.

**6. Abdullatif o'lgandan so'ng muxolifotchi kuchlar Buxoroda kimni hukmdor qilib ko'tarishadi?**
A) Abulqosim Bobur. B) Abu Said.
C) Alouddavla. D) Mirzo Abdullo.

**7. Qachon Abulxayrxon katta qo'shin bilan Abu Said yordami va ishtirokida Samarqandga Mirzo Abdulloga qarshi yurish qiladi?**
A) 1449-yil. B) 1450-yil. C) 1451-yil. D) 1452-yil.

**8. Dashti Qipchoq hukmdori Abulxayrxon Abu Said yordami va ishtirokida qaysi yo'nalish orqali Samarqandga yurish qiladi?**
A) Axsi, Andijon, Toshkent va Xo'jand orqali
B) Toshkent, Xo'jand va O'ratepa orqali
C) Turkiston, Shohruhiya va Jizzax orqali
D) Toshkent, Chinoz va Jizzax orqali

**9. Abulxayrxon va Abu Saidning birlashgan qo'shini qayerda bo'lgan jangda Mirzo Abdullo qo'shinini yengishgan?**
A) Damashq qishlog'i yaqinidagi Bulung'ur anhori yoqasida.
B) Sheroz qishlog'i yaqinidagi Bulung'ur anhori yoqasida. C) Bag'dod qishlog'i yaqinidagi Bulung'ur anhori yoqasida.
D) Qohira qishlog'i yaqinidagi Bulung'ur anhori yoqasida.

**10. Kimning yordamida Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrga hokim bo'lib oladi?**
A) Shayboniyxon. B) Abulxayrxon.
C) Ubaydullaxon. D) Imomqulixon.
**11. Temuriylar davri muarrixlarining yozishicha, Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur davrida Xuroson necha bo'lakka ajralib ketadi?**
A) 9. B) 10. C) 11. D) 12.
**12. Qachon Abulqosim Bobur vafot qilgan?**
A) 1457-yil. B) 1458-yil. C) 1459-yil. D) 1460-yil.
**13. Abu Said qachon Hirot taxtini egallaydi va saltanatning har ikki qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi?**
A) 1457-yil. B) 1458-yil. C) 1459-yil. D) 1460-yil.
**14. Qanday qulay vaziyatdan foydalangan Abu Said Hirot taxtini egallaydi?**
A) Abulqosim Bobur vafot etishi
B) Abulqosim Boburga qarshi Sulton Husaynning isyoni
C)Xurosonning Eronga qarshi harbiy yurishi
D) Abulqosim Bobuming turkmanlarga qarshi jangga ketishi
**15. Abulqosim Bobur vafotidan keyin kim Xorazmni egallab olgan?**
A) Sulton Bobur Mirzo. B) Sulton Husayn Boyqaro.
C) Sulton Ahmad Mirzo. D) Sulton Boyazid Yildirim.
**16. Sulton Husayn Boyqaro kimning avlodi?**
A) Umarshayx. B) Shohrux.
C) Mironshoh. D) Jahongir.
**17. Abu Saidni kimning isyonlari hammadan ko'proq tashvishlantiradi?**
A) Sulton Bobur Mirzo. B) Sulton Husayn Boyqaro.
C) Sulton Ahmad Mirzo. D) Sulton Boyazid Yildirim.
**18. Abu Said qachon va kimlarga qarshi jangda halok bo'ladi?**
A) 1451-yilning erta bahorida, Dashti Qipchoq ko'chmanchilarga
B) 1469-yilning erta bahorida, mo'g'ullarga
C) 1469-yilning erta bahorida, turkmanlarga
D) 1469-yilning erta bahorida, hindlarga
**19. Abu Said davrida Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlarni kimlar egallab turgan?**
A) Usmoniy turklar B) Turkmanlar
C) Dashti Qipchoq o'zbeklari D) Mo'g'ullar
**20. Qachon Sulton Husayn Boyqaro Xurosonning hokimi sifatida tantana bilan Hirotga kirib boradi?**
A) 1469-yil 21-mart. B) 1469-yil 22-mart.
C) 1469-yil 23-mart. D) 1469-yil 24-mart.
**21. Sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida Hirotga kirib borishi natijasida ...**
A) Temuriylar saltanati yana yagona davlatga birlashadi
B) Temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga bo'linib ketadi
C) Movarounnahr va Turkistonni kuchayishiga olib keladi
D) mahalliy kuchlarning mustaqilikka intilishini kuchaytiradi
**22. Xurosonda Sulton Husayn taxtga o'tirganda Movarounnahrda kim hukmronlik qilardi?**
A) Sulton Ahmad B) Sulton Mahmud C) Sulton Ali
D) Abu Said
**23. 1469-1494-yillarda kim Movarounnahrda hukmdorlik qilgan?**
A) Sulton Ahmad. B) Sulton Umar.
C) Sulton Mahmud. D) Sulton Ali.
**24. 1494-1495-yillarda kim Movarounnahrda** hukmdorlik qilgan?
A) Sulton Ahmad. B) Sulton Umar.
C) Sulton Mahmud. D) Sulton Ali.
**25. 1498-1500-yillarda kim Movarounnahrda hukmdorlik qilgan?**
A) Sulton Ahmad. B) Sulton Umar.
C) Sulton Mahmud. D) Sulton Ali.
**26. Sulton Ahmad va Sulton Mahmud kimning o'g'illari?**
A) Abu Bakr. B) Abu Said. C) Abu Nasr. D) Abu Lays.
**27. Qachon Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrga bostirib kirib, Samarqandni qamalga olgan?**
A) 1453-yil. B) 1454-yil. C) 1455-yil. D) 1456-yil.
**28. Mamlakat, el-yurt boshiga katta tashvishlar tushgan paytlarda sufiylik tariqatining namoyandalaridan qaysi biri musibatlarni daf qilish yo'lida bir necha bor jonbozlik ko'rsatgan edi?**
A) Shamsiddin Muhammad Miskin
B) Xoja Ubaydulloh Ahror C) Mironshoh Qavchin
D) Shayx Shamsiddin Kulol
**29. Kim 1454-yilda Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrga bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida mojaroga qat'iyan aralashib, raqiblarni yarashtiradi?**
A) Shayx Shamsiddin Kulol
B) Shamsiddin Muhammad Miskin
C) Sayyid Baraka D) Xoja Ubaydulloh Ahror
**30. Kim qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori bo'lgan?**
A) Sulton Bobur Mirzo. B) Sulton Husayn Boyqaro.
C) Sulton Ahmad Mirzo. D) Sulton Boyazid Yildirim.
**31. Alisher Navoiy qayerda dunyoga kelgan?**
A) Marv. B) Kobul. C) Balx. D) Hirot.
**32. Alisher Navoiy qachon dunyoga kelgan?**
A) 1441-yil. B) 1442-yil. C)1443-yil. D) 1444-yil,
**33. Ma'lumki, Sulton Husayn bilan Alisher bir maktabda o'qiganlar. Ular bolalik chog'laridayoq qaysi hukmdorning xizmatida bo'lganlar?**
A) Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur
B) Xuroson hukmdori Shohrux
C) Xuroson hukmdori Boysung'ur
D) Xuroson hukmdori Alouddavla
**34. Sulton Husayn bilan Alisher Navoiy necha yil davomida boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar?**

A) 10 yil B) 12 yil C) 14 yil D) 16 yil

**35. Abu Said hukmronligi davrida Sulton Husayn Boyqaro qaysi hududlarda darbadarlikda yurib, kuch toʻplab unga qarshi isyonlar koʻtargan edi?**

A) avval Eronda, soʻngra Xurosonning Hirot, Niso, Mashhad va boshqa viloyatlarida
B) avval Xorazmda, soʻngra Xurosonning Qandahor, Niso, Mashhad va boshqa viloyatlarida
C) avval Xorazmda, soʻngra Xurosonning Obivard, Niso, Mashhad va boshqa viloyatlarida
D) avval Seistonda, soʻngra Xurosonning Hirot, Saraxs, Mashhad va boshqa viloyatlarida

**36. Alisher Navoiy Abulqosim Bobur vafotidan so'ng qayerlarda o'qiydi?**

1. Kobul. 2. Hirot. 3. Qunduz. 4. Mashhad.
A) 1-2. B) 3-4. C) 1-3. D) 2-4.

**37. Yoshlikdan Sulton Husayn bilan yaqin bo'lgan Alisher o'ziga nisbatan Abu Saidda adovat kayfiyatini sezib qolgach, qayerga borib, ma'lum vaqt u yerda yashashga majbur bo'ladi?**

A) Xorazm. B) Samarqand. C) Buxoro. D)Toshkent.

**38. Alisher Navoiy Samarqandda kimdan saboqlar oladi?**

A) Shamsiddin Muhammad Miskin.
B) Fazlulloh Ro'zbehon Isfehoniy.
C) Fazlulloh Abullays Samarqandiy.
D) Zahiriddin Muhammad Bobur.

**39. 1469-yilda Sulton Husayn Hirotni egallagach, Alisher Navoiyni dastlab ...**

A) muhtasib lavozimiga, keyinroq esa o'ziga valiahd qilib tayin etadi
B) devonbegi lavozimiga, keyinroq esa yasovul qilib tayin etadi
C) vazir lavozimiga, keyinroq esa muhrdorlik qilib tayin etadi
D) muhrdorlik lavozimiga, keyinroq esa vazir qilib tayin etadi.

**40. Qanday ahvol bosh vazirlik vazifasida turgan Navoiyning saroydan, hatto poytaxtdan uzoqlashishiga olib keladi?**

1) viloyat hukmdorlari, hatto toj-u taxt valiahdlari Badiuzzamon va Muzaffar Husayn Mirzo isyonlari yuz beradi;
2) zulm oqibatida Hirot va uning viloyatlarida xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi;
3) o'z manfaatlarini ko'zlagan ochko'z saroy ma'murlari fitna va fasodni avj oldirib, uning botqog'iga Sulton Husaynni ham botirishlari;
4) mustahkam markazlashgan saltanat vujudga kelishi; 5) Sarbadorlar harakatini avj olishi;
6) viloyatlar sug'orilib obod etilmasligi.
A) 1,2,3 B) 1,2,3,4,5 C) 3,4,5,6 D) 1,2,4, 5

**41. Sulton Husayn Boyqaroga oid bo'lgan ma'lumotlarni qayd eting.**

1) Amudaryoning janubidagi yerlarda hukmdori edi;
2) o'z tasarrufida Xuroson, Xorazm hamda Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlarini birlashtirgan edi;
3) qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori edi;
4) uning davrida mamlakatning xo'jalik va madaniy hayoti yuksaldi;
5) Xurosonning obod etilishida, ravnaq topishida zamonasining tadbirkor va dono hukmdori;
6) Sarbadorlar harakatini qo'llab-quvvatlagan;
7) Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi;
8) qo'shinni yetti qo'lga - qismga bo'lib joylashtirish tartibini joriy qilgan;
9) Dashti Qipchoqqa qarshi jangda yengiladi;
10) Movarounnahr va Xurosonni yagona davlatga birlashtjradi.
A) 1,2,3,4,5 B) 6,7,8,9,10
C) 1,2,3,4,5,9,10 D) 3,4,6,7,8,9,10

**42. Qachon beqaror siyosiy vaziyat tufayli Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutdi?**

A) XIV asrning ikkinchi yarmi
B) XV asrning ikkinchi yarmi
C) XVI asrning ikkinchi yarmi
D) XV asrning birinchi yarmi

**43. Mirzo Abdullo kimning nabirasi?**

A) Umarshayxning nabirasi.
B) Shohruxning nabirasi.
C) Mironshohning nabirasi.
D) Jahongiming nabirasi.

**44. Abu Said kimning nabirasi?**

A) Umarshayxning nabirasi.
B) Shohruxning nabirasi.
C) Mironshohning nabirasi.
D) Jahongiming nabirasi.

**45. Sheroz qishlog'i yaqinadagi Bulung'ur anhori yoqasidagi jang kimlar o'rtasida bo'ldi?**

A) Abu Said va Abdullo Mirzo
B) Ulug'bek va Abdulaziz
C) Ulug'bek va Shayx Nuriddin
D) Shohruh va Shayx Nuriddin

**46. Sheroz yaqinidagi Zarafshon daryosi bo'yida kimlar o'rtasida jang bo'lgan?**

A) Ulug'bek va Shayx Nuriddin
B) Ulug'bek va Abdulatif
C) Abu Said va Abdullo Mirzo
D) Amir Xudoydod va Xalil Sulton

**47. Nima sababdan 1447-yilda Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida toj-u-taxt uchun kurash yana avjiga minib, mamlakat beqarorlik va chuqur ijtimoiy-siyosiy larzalarga duchor bo'ldi?**

A) Shohruxning vafot etishi B) Ulug'bekning vafot etishi C) Sulton Muhammad isyoni
D)Alouddavla Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatifning qo'shinini tor-mor qilib, uni asirga olishi

## 39-§. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT VA BUNYODKORLIK

**1. O’rta asr hunarmandchiligida nima eng rivoj topgan sertarmoq sohaga aylanadi?**
A) Zargarlik. B) To’qimachilik.
C) Kulolsozlik. D) Shishasozlik.
**2. Samarqanddagi qaysi yodgorlikda Qur’onni qo’yish uchun ulkan tosh lavh o’rnatilgan?**
A) Bibixonim jome masjidi. B) Ulug’bek madrasasi.
C) Go’ri Amir maqbarasi. D) Ulug’bek rasadxonasi.
**3. Movarounnahrning qaysi shaharlari hunarmandchilik markaziga aylanadi?**
1. Samarqand 2. Buxoro 3. Toshkent
4. Shohruxiya 5. Termiz 6. Shahrisabz 7. Qarshi
A) 1,2,3 B) 1,2,3,4
C) 1,2,3,4,5,6 D) 1,2,3,4,5,6,7
**4. O’rta asrlarda g’isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar nima deb yuritilgan?**
A) “Banno”. B) “Tarxon”. C) “Ustoz”. D) “Muzoriy”
**5. O’rta asrlarda peshtoq-u ravoq hamda toqlarga parchin va girixlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar nima deb yuritilgan?**
A) “Banno”. B) “Tarxon”. C) “Ustoz”. D) “Muzoriy”.
**6. XV asrda qaysi shaharlarda qurilish ishlari keng avj olib, binokorlarning roli oshib ketadi?**
A) Urganch va Marv. B) Buxoro va Kobul.
C) Toshkent va Balx. D) Samarqand va Hirot.
**7. Quyidagilardan qaysilar XV asr xalq ustalarining yog’och o’ymakorligi san’atidagi eng nodir namunalaridan hisoblanadi?**
A) Tabrizdagi masjid, Sherozdagi saroy, Turkistondagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara
B) Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbaralari, Shohizinda me’moriy ansamblining asosiy qismi
C) Go’ri Amir va Shohizindaning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari
D) Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob yodgorliklari
**8. Qayerning qog’ozi o’rta asr Sharq xattotligida g’oyat mashhur bo’lib, uning ma’lum bir qismi chet o’lkalarga chiqarilgan?**
A) Toshkent. B) Buxoro. C) Samarqand. D) Urganch.
**9. Qaysi mamlakat bilan Ulug’bek va Shohrux muntazam ravishda elchilar almashib turishgan?**
A) Hindiston B) Xitoy C) Eron D) Tibet
**10. Shohrux bilan Ulug’bek zamonida qaysi davlatlar bilan yaxshi qo’shnichilik munosabatlari o’rnatiladi?**
A) Rusiya, Volga bo’yi va Sibir
B) Xitoy, Hindiston va Eron
C) Xitoy, Tibet va Hindiston
D) Usmoniylar saltanati, Misr va Suriya
**11. Mirzo Ulug’bek qachon muomaladagi fulusiy pullar islohotini amalga oshirdi?**
A) 1425-yil. B) 1426-yil. C) 1427-yil. D) 1428-yil.
**12. Ulug’bek fulusiy pullar islohotini amalga oshirganda qanday pullarni man etdi?**
A) soxta kumush va mis tangalarni
B) yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni C) jez va mis tangalarni
D) jez aralashgan kumush tangalrni
**13. Ulug’bekning fuluslari xalq o’rtasida qanday nom bilan shuhrat topgan?**
A) “fulusi tamg’a” B) “fulusi adliya” C) “fulusi banno” D) “fulusi ustod”
**14. Ulug’bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko’paytirish maqsadida qaysi soliqni birmuncha oshirdi?**
A) xiroj solig’ini B) zakot solig’ini
C) tamg’a solig’ini D) ushr solig’ini
**15. Ulug’bek zamonida mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining hajmini oshirib, kasb-hunar tarmoqlarining rivojiga aylangan asosiy omillardan birini aniqlang.**
A) ichki va tashqi savdoning kengayishi
B) dehqonchilikning rivoji
C) Ulug’bek fulusiy pullar islohoti
D) hunarmandchilikning rivoji
**16.Tamg’a - bu ...**
A) mayda mis chaqa B) savdo boji, savdogarlardan olinadigan soliq.
C) mehnatkash aholiga yuklatilgan saroy, jamoat binolari, mudofaa va sug’orish inshootlarini hamda yo’l qurilish va tuzatish ishlarida tekinga ishlab berish majburiyati
D) ekin maydonlarida ishlov beruvchi yollanma ziroatchi
**17. Ulug’bek davrida mayda mis chaqa pul qanday nom bilan atalgan?**
A) fulus B) tamg’a C) kepaki D) dinor
**18. Xususiy sohibkorlarniug qanday faoliyati temuriylar tomonidan qo’llab-quvvatlanadi?**
A) aholini doimiy ravishda begorga jalb qilishi
B) qo’shinni doimo oriq-ovqat bilan ta’minlab turish
C) aholidan soliqlarni begor tartibi orqali yig’ib olishi
D) dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog’ ko’kartirish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug’orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati
**19. XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda yerga egalikning asosan necha shakli bo’lgan?**
A) ikki B) uch C) besh D) to’rt
**20. XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda yerga egalikning asosan qanday shakllari bo’lgan?**
1) Mulki sultoniy 2) Mulki devoniy 3) Mulki inju
4) Mulk 5) mulki vaqf 6) Jamoa yerlari 7) Mulki xos
A) 1,3,4,5 B) 2,4,5,6 C) 1,4,5,6,7 D) 2,3,4,5,6
**21. Temuriylar davrida davlat yerlarini qanday tarzda inom etish keng tarqaladi?**
A) iq’to B) jogir C) suyurg’ol D) tarxonlik
**22. Suyurg’ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat qanday tadbir qo’llardi?**

A) har bir suyurg'ol egasiga markaziy hokimiyatdan maslahatchilar tayinlanardi
B) suyurg'ol yerida mavjud bo'lgan qo'shin qo'mondoni faqat oliy hukmdorga bo'ysunardi
C) ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning haq-huquqlarini cheklab qo'yar edi
D) markaziy hokimiyat oltin va kumush tangalar zarb qilar edi, suyurg'ol egasi bunday imkoniyatga ega emas edi

**23. Temuriylar davrida bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron xizmati uchun nima berish keng tarqaladi?**
A) iqto yorlig'i berish B) vaqf yorlig'i berish
C) tarxonlik yorlig'i berish D) bahodirlik yorlig'i berish

**24. XV asrda mehnatkash aholining xashar ishlari nima deb atalgan?**
A) Begor. B) Qazu. C) Tanob. D) Hachi.

**25. XV asrda sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq nima deb atalgan?**
A) Xiroj. B) Ushr. C) Zakot. D) Jiz'ya.

**26. Daryo va buloq suvlari bilan sug'oriladigan obikor verlardan xiroj hosilning necha foizi miqdorida olingan?**
A) 33%. B) 34 %. C) 35 %. D) 36%.

**27. Lalmikor yerlardan hosilning necha foizi miqdorida soliq undirilgan?**
A) 18,5 % dan 14,5 foizgacha.
B) 17,5 % dan 13,5 foizgacha.
C) 16,5 %dan 12,5 foizgacha.
D) 15,5 %dan 11,5 foizgacha.

**28. Mulk yerlarining bir qismidan qanday soliq olingan?**
A) Xiroj. B) Ushr. C) Zakot. D) Jiz'ya.

**29. Ushr necha foiz miqdorida olingan?**
A) 10%. B) 20 %. C) 30 %. D) 40 %.

**30. Zakot necha foiz miqdorida olingan?**
A) 1,5%. B) 2,5 %. C) 3,5 %. D) 4,5%.

**31. Temuriylar davrida mahalliy aholiga yuklatilgan saroy, jamoat binolari, mudofaa va sug'orish inshootlarini hamda yo'l qurilish ishlarida ommaviy ishlab berish majburiyati, muqaddas ommaviy hasher nima deb atalgan?**
A) barot B) begor C) kalon D) qopchur

**32. Tarxonlik yorlig'i odatda qaysi tabaqalarga berilgan?**
1. Amirlar 2. Beklar 3. Saroy amaldorlari 4. Sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga
A) 1,2,3 B) 1,4 C) 1,3,4 D) 1,2,3,4

33. Quyidagi qaysi javob xato?
A) Sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq "xiroj" deb atalgan
B) Xiroj mahsulot yoki pul bilan to'langan
C) Xiroj hosilga va yerning unumdorligiga qarab belgilangan
D) Langarxona-shifoxona

## 40-§. TA'LIM TIZIMI

**1. Qachon Saroymulkxonim Samarqandda shunday madrasa qurdirgan ediki, u o'z hashamati bilan o'sha davrdagi boshqa inshootlardan ajralib turardi?**
A) 1404-yilda B) 1405-yilda
C) 1403-yilda D) 1406-yilda

**2. Hirot hududining o'zidagina nechta madrasa mavjud edi?**
A) 34 ta B) 36 ta C) 38 ta D) 33 ta

**3. Hirot tevaragida joylashgan qaysi madrasa va xonaqoh ayniqsa shuhrat qozongan edi?**
A) Xalosiya B) Ixlosiya
C) amir Feruzshoh D) Safed

**4. Quyidagi madrasalardan qay birlari Injil anhori yqainida qurilgan?**
1.Xalosiya 2.Ixlosiya 3.amir Feruzshoh 4.Safed
A)1,2 B)2,3 C)3,4 D)2,4

**5. Ulug'bek farmoni bilan qachon Buxoroda madrasa bunyod etilgan?**
A) 1417-yil. B) 1418-yil. C) 1419-yil. D) 1420-yil.

**6. Ulug'bek farmoni bilan qachon Samarqandda madrasa bunyod etilgan?**
A) 1417-yil. B) 1418-yil. C) 1419-yil. D) 1420-yil.

**7. Ulug'bek farmoni bilan qachon G'ijduvonda madrasa bunyod etilgan?**
A) 1433-yil. B) 1434-yil. C) 1435-yil. D) 1436-yil.

**8. Ulug'bek qurdirgan qaysi madrasaning darvozasiga "Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir" degan xitobnoma o'yib yozib qo'yiladi?**
A) Urganch madrasasi. B) Samarqand madrasasi.
C) Buxoro madrasasi. D) G'ijduvon madrasasi.

**9. O'rta asrlarda qaysi fan riyoziyot deb atalgan?**
A) Astronomiya. B) Geografiya.
C) Matematika. D) Geometriya.

**10. O'rta asrlarda qaysi fan handasa deb atalgan?**
A) Astronomiya. B) Geografiya.
C) Matematika. D) Geometriya.

**11. O'rta asrlarda qaysi fan ilmi hay'at deb atalgan?**
A) Astronomiya. B) Geografiya.
C) Matematika. D) Geometriya.

**12. 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi necha qavatli, necha hujrali bo'lgan?**
A) 1 qavatli, 40 hujrali. B) 2 qavatli, 50 hujrali.
C) 3 qavatli, 60 hujrali. D) 4 qavatli, 70 hujrali.

**13. 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasida kim yetakchi mudarris bo'lgan?**
A) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy.
B) Alouddin Ali Qushchi. C) Shamsiddin Muhammad Havofiy. D) Qozizoda Rumiy.

**14. Samarqandda Ulug'bek madrasasi ochilgan kuni birinchi darsda tolibi ilmlardan necha nafari qatnashgan?**
A) 60. B) 70. C) 80. D) 90.

**15. Samarqandda Ulug'bek madrasasi ochilgan kuni birinchi darsni kim o'qigan?**

A) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy.
B) Alouddin Ali Qushchi. C) Shamsiddin Muhammad Havofiy. D) Qozizoda Rumiy.

**16. Samarqandda Ulug'bek madrasasida ilmi hay'atdan darsni kim bergan?**
A) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy.
B) Alouddin Ali Qushchi.
C) Shamsiddin Muhammad Havofiy. D) Qozizoda Rumiy.

**17. Samarqandda Ulug'bek madrasasida kamida necha yil tahsil ko'rganlar?**
A) 13-14yil. B) 14-15yil. C) 15-16yil. D) 16-17yil.

**18. Samarqandda Ulug'bek madrasasining dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'ziashtirgan va imtihonlarda o'z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga nima yozib berilgan?**
A) Sanad. B) Tarxon. C) Payza. D) Diplom.

**19. O'sha davrda Samarqandda Ulug'bek madrasasidan tashqari yana qaysi madrasalar ham mavjud edi?**
1.Xonim 2.Qutbiddin Sadr 3.Muhammad Sadr
4.Xalosiya 5.Ixlosiya 6.amir Feruzshoh
A)1,2,3 B)1,2,4 C)2,3,6 D)2,4,5

## 41-§. ANIQ FANLARNING RIVOJLANISHI

**1. XV asrda qaysi shaharlarda olimlar-u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to'plangan edi.**
A)Samarqand va Hirotda B)Samarqand va Buxoroda C) Hirot va Buxoroda D)Samarqand va Mashhadda

**2. Mirzo Ulug'bek Samarqandning qayerida rasadxona qurdirdi?**
A) Obirahmat anhori bo'yida B) Zarafshon bo'yida C) Sheroz yaqinida D) Konigil mavzeyida

**3. Mirzo Ulug'bek qachon Samarqand shahri yaqinida rasadxona qurdirdi?**
A) 1421-1426-yillarda. B) 1422-1427-yillarda.
C) 1423-1428-yillarda. D) 1424-1429-yillarda.

**4. Ulug'bek rasadxonasining balandligi necha metr edi?**
A) 29 metr. B) 30 metr. C) 31 metr. D) 32 metr.

**5. Qaysi sohalarda erishilgan buyuk muvaaqiyatlar Temuriylar davlatiga katta shuhrat keltirdi?**
A) Astronomiya va matematika
B) Astronomiya va geografiya
C) Geografiya va matematika
D) Astronomiya va geografiya

**6. Kim boshchiligida Ulug'bek rasadxonasining asosiy o'lchov asbob-uskunasi - ulkan sekstant o'rnatilgan?**
A) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy.
B) Alouddin Ali Qushchi.
C) Shamsiddin Muhammad Havofiy.
D) Qozizoda Rumiy.

**7. Ulug'bek rasadxonasi qoshida necha ming jild kitob saqlangan?**
A) 13 ming. B) 14 ming. C) 15 ming. D) 16 ming.

**8. Kim Aflotuni zamon deb nom olgan?**
A) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy.
B) Alouddin Ali Qushchi.
C) Shamsiddin Muhammad Havofiy. D) Qozizoda Rumiy.

**9. Kim "o'z davrining Ptolemeyi" nomi bilan shuhrat qozongan?**
A) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy.
B) Alouddin Ali Qushchi.
C) Shamsiddin Muhammad Havofiy. D) Qozizoda Rumiy.

**10. Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli nechta qo'zg'almas (turg'un) yulduzlarning o'rni va holati aniqlangan?**
A) 1017. B) 1018. C) 1019. D) 1020.

**11. Ulug'bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor-yo'g'i... farq qiladi?**
A) 1 minut-u 2 sekund. B) 2 minut-u 1 sekund.
C) 3 minut-u 4 sekund. D) 4 minut-u 3 sekund.

**12. Ulug'bekning qaysi kitobi shoh asari hisoblanadi?**
A) "Temur tuzuklari"
B) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"
C) "Kitob surat ul-arz"
D) "Ziji jadidi Ko'ragoniy"

**13. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asosan necha qismdan iborat?**
A) ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzlarning o'mi va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat
B) ikki qismdan: keng muqaddima va sayyoralarning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.
C) ikki qismdan: keng muqaddima va yerning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.
D) ikki qismdan: keng muqaddima va quyosh va oyning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

**14. Ulug'bek astronomik jadvaldan tashqari yana qanday asarlar yozgan?**
A)"Temur tuzuklari" nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bagishlangan beshta risola
B)"Tarixi arba ulus" nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bagishlangan beshta risola
C)"Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" nomli astronomik asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola
D)"Kitob surat ul-arz" nomli yer o'lchoviga oid asar va musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola

**15. "Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali" asarining muallifi?**
A) Husayn Boyqaro. B) Alisher Navoiy.
C) Mirzo Ulug'bek. D) Bobur Mirzo.

**16. "To'rt ulus tarixi" asarining muallifi?**
A) Husayn Boyqaro. B) Alisher Navoiy.

C) Mirzo Ulug'bek.  D) Bobur Mirzo.
**17. "Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o'lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallami tuzishda ishtirok etdi", deb kim yozgan edi?**
A) Vyatkin. B) Karamzin. C) Volter.  D) Klavixo.
**18. 1694-1778-yillarda kim yashagan?**
A) Vyatkin. B) Karamzin. C) Volter.  D) Klavixo.
**19. Osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun mo'ljallangan ko'zgu-qaytargichli asbob nima deb atalgan?**
A) Teleskop. B) Arseni. C) Sekstant. D) Fonograf.
**20. Shahodatnoma nima deb atalgan?**
A) Sanad.  B) Tarxon. C) Payza.  D) Diplom.

## 42-§. ADABIYOT

**1. Kim tomonidan "Yusuf va Zulayho" dostoni qayta ishlangan?**
A) Lutfiy. B) Atoiy. C) Durbek. D) Jomiy.
**2. 1366-1465-yillarda kim yashagan?**
A) Lutfiy. B) Atoiy. C) Durbek. D) Jomiy.
**3. Atoiy qayerlik shoir?**
A) Xorazm.  B) Samarqand. C)Buxoro. D) Toshkent.
**4. Lutfiy ijodida qanday fikrlar katta joy olgan?**
A) insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga chaqirish
B) ona yerga bo'lgan muhabbat va insonparvarlik g'oyalarini mohirona bayon etadi.
C) adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini, har bir kishi o'zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini
D) haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va san'atni sevish
**5. Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida kimning darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan?**
A) Lutfiy. B) Atoiy. C) Durbek. D) Jomiy.
**6. Alisher Navoiy qanchadan ortiq yirik badiiy asar yozdi?**
A) 10.  B) 20.  C) 30.  D) 40.
**7.Alisher Navoiy tomonidan yozilgan asarlarni qayd eting.**
A)"Bulujiy", "Shodiyona", "Axloqiy", "Tabriziy", "Usuli ravon" va "Usuli otlig"
B)"Zafarlar kaliti", "Falakning to'qqiz gumbazi", "Xamsa', "Xazoyin ul-maoniy"
C) "Guliston', "Bo'ston', "Zafarlar kaliti", "Falakning to'qqiz gumbazi" D) "Xamsa', "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr"
**8. Kim Alisher Navoiyning zamondoshi, ustozi va do'sti edi?**
A) Nizomiy  B) Atoiy
C) Abdurahmon Jomiy D) Husayn Boyqaro
**9. Fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy qachon yashagan?**
A) 1413–1492  B) 1415–1494
C) 1414–1492  D) 1414–1498
**10. Prezidentning qaysi asarida "Agar bu ulug'zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir" deb Alisher Navoiyga ta'rif beradi?**
A) "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"
B) "Ma'naviy yuksalish yo'lida"
C) "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir"
D) "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"
**11. Qaysi allomalarning do'stligi va hamkorligi o'zbek va qardosh xalqlar do'stligi va hamkorligining yuksak namunasidir ?**
A) Navoiy va Jomiy   B) Navoiy va Husayn Boyqaro
C) Navoiy va Kamoliddin Behzod  D) Navoiy va Lutfiy
**12. Tarix ilmining yirik namoyondalaridan biri Mirxond qachon yashagan?**
A) 1438–1498-yillar  B) 1438–1499-yillar
C) 1439–1499-yillar  D) 1438–1488-yillar
**13. Mirxond ... da tug'ilgan bo'lsa-da, umrining deyarli ko'p qismini ... o'tkazadi?**
A) Marv, Hirot  D) Marv, Mashhad
C) Balx, Marv   D) Balx, Hirot
**14. Mirxond Alisher Navoiyning ko'rsatmasi va homiyligi bilan qaysi asarini yozadi?**
A) "Habib us-Siyar"     B) "Ravzat us-safo"
B) "Tarixi jaxonkushoy"  D) "Tarixi ar'ba ulus"
**15. Mirxondning nabirasi Xondamir nechanchi yillarda yashagan?**
A) 1438–1498-yillar  B) 1475–1535-yillar
C) 1439–1499-yillar  B) 1476–1535-yillar
**16. Xondamir hazrat Alisher Navoiyning shogirdi edi. Xondamir necha yoshlarida Alisher Navoiyning diqqat-nazariga tushadi va uning vafotiga qadar ulug' shoirning yonida bo'lib, uning kutubxonasiga boshchilik qiladi?**
A) 14-15  B) 15-16
C) 16-17  D) 17-18
**17. Navoiy Xondamir haqida qaysi asarida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Mavlono Xondamir Mirxondning farzandidir va salohiyatli yigitdir. Tarix ilmida moharati bordir".**
A) "Lison ut-tayr"      B)"Majolis un-nafois"
C) Xazoyin ul-maoniy"   D) "Mahbub ul-qulub"
**18. Quyidagi qaysi asar Xondamir qalamiga mansub?**
A) "Habib us-Siyar"     B) "Ravzat us-safo"
B) "Tarixi jaxonkushoy"  D) "Tarixi ar'ba ulus"
**19. Quyidagi qaysi asar dunyoning yaratilishidan to 1523-yilgacha bo'lgan O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan?**
A) "Habib us-Siyar"     B) "Ravzat us-safo"
B) "Tarixi jaxonkushoy"  D) "Tarixi ar'ba ulus"
**20. Quyidagi qaysi shaxsning ota-bobolari asli**

**buxorolik bo'lib, fiqh ilmida zamonasining yetuk olimlari sifatida shuhrat topganlar?**
A) Mirxond B) Xondamir
C) Mirali Tabriziy D) Sultonali Mashhadiy

**43-§. TASVIRIY SAN'AT**

**1 Kim nasta'liq deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qiladi?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**2. 1330-1404-yillarda kim yashagan?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**3. Sultonali Mashhadiy nechanchi yillarda yashagan?**
A) 1431-1519-yillarda. B) 1432-1520-yillarda.
C) 1433-1521-yillarda. D) 1434-1522-yillarda.

**4. Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan qanchadan ziyod kitob va ko'pgina qit'alar hozirgi vaqtgacha yetib kelgan?**
A) 50. B) 60. C) 70. D) 80.

**5. Sultonali Mashhadiy xattotlikdan tashqari yana qaysi san'atda ham mohir bo'lgan?**
A) musavvirlik B) lavvohlik C) sahhoflik
D) o'ymakorlik

**6. Kim "Qiblat ul-quttob" (Kotiblar qiblasi) nomi bilan shuhrat topadi?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**7. Kim "Sulton ul-xattotin" (Xattotlar sultoni) nomi bilan shuhrat topadi?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**8. Temuriylar davrida qaysi shaharlarda maxsus saroy kulubxonalari tashkil etilgandi?**
A)Samarqand va Hirotda B)Samarqand va Buxoroda
C) Samarqand va Keshda D)Buxoro va Shohruhiyada

**9. Temuriylar davrida kitobxona ishlariga kim boshchilik qilgan?**
A) dodxoh B) kitobxona dorug'asi yoki kitobdor
C) muhassil D) yasovul

**10. Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kutubxonasida qachon Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" dostoni ko'chirilgan?**
A) 1429-yil. B) 1430-vil. C) 1431-yil. D) 1432-yil.

**11. Qayerda Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" dostoni ko'chirilgan?**
A) Marv. B) Kobul. C) Balx. D) Hirot.

**12. Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kutubxonasida Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" dostoni ko'chirilib, u nechta turli mazmun va manzarali rangdor miniaturalar bilan bezatilgan?**
A) 10. B) 20. C) 30. D) 40.

**13. Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kutubxonasida nechta xattot qo'lyozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan?**
A) 10. B) 20. C) 30. D) 40.

**14. Kim tomonidan chizilgan Navoiy tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg'inlik alomatlari, ham ulug'vorlik va olijanoblik ko'zga yaqqol tashlanib turadi?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**15. Kim musavvirlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**16. Kim zamondoshlari tomonidan Moniyi Soniy deb ulug'langan?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**17. Moniyi Soniy bu?**
A) Birinchi Moniy. B) Ikkinchi Moniy.
C) Uchinchi Moniy. D) To'rtinchi Moniy.

**18. Dehlaviyning "Layli va Majnun" dostoniga bag'ishlangan kimning link manzaralari yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvir etilgan miniaturalari nihoyatda jozibador va ta'sirchandir?**
A) Kamoliddin Behzod. B) Mirali Tabriziy.
C) Sultonali Mashhadiy. D) Mahmud Muzahhib.

**19. Kamoliddin Behzod tomonidan qaysi tarixiy siymolarning portretlari chizilgan?**
A) Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur
B) Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih, Durbek, Sakkokiy
C) Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy
D) Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xisrav Dehlaviy

**20. Kamoliddin Behzod nechanchi yillarda yashagan?**
A) 1455–1536-yillar B) 1456–1537-yillar
C) 1454–1535-yillar D) 1455–1538-yillar

**21. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning qachon imzolangan farmoniga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi, Milliy rassomlik va dizayn institutiga Behzod nomi berildi?**
A) 1996-yil 24-yanvar B) 1997-yil 23-yanvar
C) 1999-yil 27-yanvar D) 1995-yil 23-yanvar

**22. 2000-yil noyabrda qaysi shaharlarda va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi?**
1.Toshkent 2.Samarqand 3.Buxoro 4.Qarshi
A) 1,3 B) 1,2 C) 1,4 D) 2,4

**23. Qaysi shaharda Behzod nomidagi memorial bog' barpo etildi?**
A) Samarqand B) Buxoro
C) Toshkent D) Andijon